

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**SH.USANOV, V.AHROROV**

**«UMUMIY PEDAGOGIKA»  
FANIDAN**

**TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

## KIRISH

“Umumiy pyedagogika” o’quv kursi bo’yicha ta’lim texnologiyasi ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarni loyihalash texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo’llanma kirish, ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari hamda ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda o’qitish texnologiyalaridan tarkib topgan.

Ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari bo’limida “Umumiy pedagogika” o’quv kursini o’qitishning dolzarbligi asoslangan, mazkur kursning tuzilmasi keltirilgan hamda kurs bo’yicha o’qitishning mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga o’qitish, kommunikasiya, axborot va ta’lim jarayonini boshqarish usullari va vositalarining konseptual asoslari yoritilgandir.

So’ngra kurs bo’yicha o’qitish texnologiyalari loyihalashtirilgan:

1) ma’ruza mashg’ulotlarini olib borishning kirish-ma’ruza, mavzu asosida ma’ruza, muammoli ma’ruza, vizuallashtirilgan ma’ruza va yakunlovchi ma’ruzalar ko’rinishlari qo’llanilishi;

2) amaliy mashg’ulotlarni olib borishning topshiriqlarni individul tarzda yoki guruhda bajarilishi, vaziyatli ishlanma – keys-stadilar usuli, nazariy bilimlar asosida bilimlar va ko’nikmalarni chuqurlashtirishga yo’naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajarilishi.

Kursning strukturasi mundarija bilan birgalikda sxema ko’rinishida ham berilganligi kitobda yo’nalishni yanada osonlashtiradi.

Mazkur ta’lim texnologiyasi barcha oliy o’quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida, o’qitish texnologiyasida ko’zda tutilgan sharoitlar va vaqti mavjud bo’lgan holda “Umumiy pedagogika” o’quv kursini olib borishda o’qituvchi tomonidan qo’llanilishi mumkin.

# «UMUMIY PEDAGOGIKA» O'QUV KURSI BO'YICHA TA'LIM TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI

## 1. «Umumiy pedagogika» kursining dolzarbligi va o'qitish strukturasi

### I. Kirish

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat hamda fuqarolar jamiyati qurishga, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga, jamiyatni ma'naviy yangilashga, jahon hamjamiyatiga uyg'unlashuvga qaratilgan yo'lni tanlab oldi.

Mamlakatning o'ziga xos mentalitetini hisobga olgan holda O'zbekiston tanlab olgan o'z rivojlanish modeli, shunga olib keldiki, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotning taraqqiy etgan mamlakatlarda umume'tirof etgan tamoyillari hamda me'yorlari hukmron va muqarrar xususiyat kasb etib, ular respublikaning nafaqat hozirgi holatini, balki uning taraqqiyotini belgilaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "...barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jixatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda xech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash oldimizdagi eng katta maqsadlarimizdan biridir" deb ta'kidlab o'tdilar.

Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarni hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish olib borish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi.

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodlarga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Insonlarni ma'rifatli va ma'naviy komil bo'lishi - pedagogika fanini asosiy maqsadidir.

Pedagogikaning bosh masalasi, predmeti tarbiyadir. Tarbiyadagi keng ma'no ta'lim, rivojlanish, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir.

Bu o'z navbatida insoniyat yaratgan ma'naviy-ilmiy boylarlarga, insonning o'ziga yangicha munosabat, yondashuvni yuzaga keltirdi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: «Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir»

Bunday yangicha yondashishlar pedagogika fanining obyekt va predmetini kengaytiradi. Endi pedagogika fani faqat ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy, metodik-amaliy tomonidan ta'minlovchi keng sohalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi milliy ta'minot maqsadida shaxsga kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt sifatida qaraladi.

Pedagogika ta'lim-tarbiyada hayot jarayonining barcha sohalarini, jabhalarini qamrab olmasa, u o'zining komil inson tarbiyasidagi juda katta asosiy imkoniyatlariga ega bo'lgan asosiy ijtimoiy fan mavqeyini egallay olmagan bo'lardi. Shuning uchun ham yangi ta'lim konsepsiyasida va mutaxassislar tayyorlash milliy dasturida ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi qilib belgilanadi.

Umumiy pedagogika fanining nazariy asoslari inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga Markaziy Osiyo va jahon ma'rifatparvar, mutafakkir olimlarining asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalash, o'qitishning qonun - qoida va tamoyillarining umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

**Umumiy pedagogika fanining maqsadi** o'zbek xalqining qadimiy ma'rifiy me'rosining qimmatli manbalari hamda ularda ilgari surilgan g'oyalarni o'qib o'rganish, shaxs ma'naviyatini yuksaltirish, shuningdek, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi qarashlarni hozirgi zamon ilmiy – pedagogik tafakkur iste'moliga kiritishdan iboratdir.

Shu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish ko'zda tutiladi:

-pedagogika kursi bo'yicha talabalarning umumpedagogik bilimlari darajasini kengaytirish, bo'lg'usi iqtisodchi – pedagoglarning pedagogik tafakkurini shakllantirish negizini yaratish;

-pedagogik meros va uning g'oyalariga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, ko'nikmalarni shakllantirish;

-respublikamizda komil insonni voyaga yetkazishning bir butun xolatdagi muammolarini xal qilish;

-«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish sharoitida talabalarni ma'naviy – ahloqiy tarbiyalashda ta'lim – tarbiya samaradorligini tinmay oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondoshish;

-buyuk allomalar va o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini chuqur tahlil etish;

- pedagogik qarashlar va ularning mohiyati doirasida fikr yuritish va eng muhimi, iqtisodchi – pedagog faoliyatini terang anglash;

**Fan bo'yicha talabalarning bilimi, uquvi va ko'nikmasiga ko'yiladigan talablar:**

a) tasavvurga ega bo'lishlari kerak:

- fanga tegishli bo'lgan nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'rganish, aniq tasavvurga ega bo'lishlari;

- har bir elementga e'tibor bergan holda, fan sirlarini to'liq o'zlashtirib olishlari lozim.

b) bilish kerak:

- talabalar kursni o'zlashtirish jarayonida fanning mazmuni, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, fanning nazariy asoslarini;

- fanga tegishli bo'lgan asosiy terminlarning izohini, yangiliklar, qonun – qoidalarni o'zlashtirishlari zarur;

v) bajarish lozim:

- talabalar fanning mazmunidan kelib chiqqan holda har bir mavzuga tegishli bo'lgan mustaqil ravishda kerakli adabiyotlardan foydalanishlari, dokladlar, referatlar tayyorlashlari;

- kunlik seminarlarda kerakli ma'lumotlarni yig'ishlari, noan'anviy usullarni takomillashtirilgan variantlarini ishlab chiqishda ishtirok etishlari.

Ushbu «Umumiy pedagogika» fani o'quv rejasiga asosan maktabgacha ta'lim va sport, tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun 2-kursda, 3-4 semestrlarda o'tilib, 3-4 semestrda jami 216 soat bo'lib, shundan 50 soat ma'ruza, 32 soat seminar (amaliy) mashg'ulot, 24 soat laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'limga 24 soat ajratilgan.

## Mashg'ulotlar turlari bo'yicha o'quv soatlarining taqsimlanishi

№	Mavzu	Auditoriya soatlari				Mustaqil ish	Jami
		Jami	Shu jumladan:				
			Ma'ruza	Semenar (Amaliy)	Laboratoriya		
<b>3-4 semestr</b>							
1	Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.	4	2	2		4	8
2	Pedagogika fanining tarmoqlari.	2	2			4	6
3	Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari.	2	2			4	6
4	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.	6	2	4		6	12
5	Shaxs shakllanishining umumiy qonuniyatlari.	6	2	4		6	12
6	O'spirinlik davrida xarakterni individual xususiyatlari va unda tarbiyaning roli.	6	2	4		6	12
7	O'qituvchi mahoratining asoslari.	14	4	4	6	6	20
8	Didaktika – ta'lim nazariyasi.	14	4	6	4	6	20
9	Ta'limni tashkil etish shakllari.	10	2	2	6	6	16
10	Ya.A.Komenskiy - didaktikaning asoschisi sifatida.	4	2	2		6	10
11	Ta'limni tashkil etishda texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish	6	2	4		6	12
12	O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish.	4	2	2		6	10
13	Tarbiya nazariyasi.	10	2	4	4	6	16
14	Tarbiyaning kelib chiqishi.	2	2			4	6
15	Oilada tarbiya asoslari. Xozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari	10	2	2	6	6	16
16	Ta'lim tizimini boshqarish asoslari	6	4	2		6	12
17	Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.	4	2	2		6	10
18	O'zbek xalq pedagogikasi. Uni ta'lim tarbiyada tutgan o'rni.	8	2	2	4	6	14
19	VII-IX asrlarda Movarounnaxrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.	6	4	2		6	12
20	Sharq uyg'onish davri va bu davrda pedagogik fikr taraqqiyoti.	4	2	2		6	10
21	XIV-XV asrlarda Temur va temuriylar davrida ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim-tarbiya.	8	4	4		6	14
22	XVI-XVIII asrlarda pedagogik fikrlarni rivojlanishi va madaniyat, ta'lim-tarbiya.	2	2			4	6
23	Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.	4	2	2		6	10
24	Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi	4	2	2		6	10
25	Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.	4	2	2		6	10
	<b>Jami:</b>	<b>150</b>	<b>60</b>	<b>60</b>	<b>30</b>	<b>140</b>	<b>290</b>

## **2. «UMUMIY PEDAGOGIKA» O'QUV KURSINING MAZMUNI**

### **Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

Pedagogika fanining paydo bo'lishi. Pedagogika tarbiya haqidagi fan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida pedagogikaning o'rni va rolining ortib borishi. O'zbekistonda erkin demokratik, fuqarolik jamiyatni shakllantirishda pedagogika fanining ahamiyati.

Pedagogikaning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va ularga nisbatan bo'lgan munosabatining o'ziga xosligi. Pedagogikaning ilmiy, nazariy, amaliy va kelajakni belgilash funksiyalari. Barkamol avlodni tarbiyasi hamda ta'lim muammosini ishlab chiqishda pedagogikaning ahamiyati.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, o'qitish, o'zini o'zi tarbiyalash, mustaqil o'qish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash sharoitida pedagogik ilmiy – tadqiqotlarning ahamiyati, ularning vazifasi, yo'nalishlari. Pedagogik tadqiqotlarning turlari: asosiy, nazariy, amaliy.

### **Pedagogika fanining tarmoqlari.**

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda pedagogikaning tarmoqlarining o'rni. Xozirgi kunda pedagogikani asosiy tarmoklari xaqida. Yosh davrlari pedagogikasi va uni ta'lim – tarbiyadagi o'rni. Katta yoshdagilar pedagogikasida oliy o'quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va metodikasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog'i sifatida oliy ukuv yurti pedagogikasining shakllanayotganligi, uning aniqlashib borayotganligi xaqida.

Milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan harbiy pedagogika sohasi shug'ullanishi xaqida. Bulardan tashqari oila pedagogikasining bugungi kundagi dolzarb vazifalari xaqida. Pedagogikaning maxsus tarmoqlari defektologiya xaqida.

### **O'zbekistonda Respublikasi ta'lim tizimi.**

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va unda xar tamonlama barkamol va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilganligi xaqida. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi va unda amalga oshiriladigan vazifalar xaqida. Sog'lom avlod, sog'lom nasl, jismonan baquvvat, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalash xaqida.

### **Shaxs shakllanishining umumiy qonuniyatlari**

Shaxs xaqida tushuncha. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Biologik omilning shaxs taraqqiyotidagi o'rni. Ijtimoiy omil va uning shaxs shakllanishiga ta'siri. Maqsadga muvofiq olib bariladigan ta'lim-tarbiya. O'z-o'zini tarbiyalash. Shaxs shakllanishida qarama-qarshiliklarni o'rni. Ichki va tashqi qarama-qarshilik.

### **O'spirinlik davrida xarakterni individual xususiyatlari va unda tarbiyaning roli.**

O'spirinlar, ularning dunyoni bilishi, o'zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilish, tushunishi va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog'liq ayrim jihatlarini tahlil qilishi xaqida. O'spirinlik davrida xarakterni individual xususiyatlari va unda

tarbiyaning roli. Qizlar tarbiyasi. O'g'il bolalar tarbiyasi. Bu davrda pedagogdan talab etiladigan vazifalar.

### **Pedagogik mahorat asoslari.**

O'qituvchi yoshlarga ta'lim –tarbiya beruvchi shaxs sifatida.O'qituvchi-murabbiyning o'ziga xos fazilatlar: ilmiy dunyokarashi va insonparvarligi, uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlod tarbiyasi uchun o'qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi ma'suliyati, uning kasbiy bilimdonligi, malaka, ko'nikmalari. Pedagogik iste'dodi va qobiliyati. Dars jarayonini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil eta olishi. O'qituvchi-murabbiyning pedagogik axlok-odobi va nazokati, uning o'quvchilar, ota-onalar va xamkasblari bilan muomalasi.

Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqiroz sharoitida pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar.

### **Didaktika – ta'lim nazariyasi.**

Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va asosiy vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Ta'lim mazmunini belgilovchi obyektiv va subyektiv omillar. Ta'limning ikki tomonlama jarayon ekanligi, ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy elementlari, maqsadlari, vazifalari, uslublari.

Ta'lim – bilish faoliyatida voqelikni bilishning maxsus shakli ekanligi. Mustaqillikni mustahkamlash ta'limning mohiyati – mazmuni ekanligi.

Ta'lim qonuniyatlari: ta'limning jamiyat ehtiyojlariga bog'liqligi, ta'limda ma'lumot berish. Ta'lim qoidalari haqida tushuncha. Ta'limning ilmiyligi. Ta'limda uzviylik va izchillik. Ta'limda ongillik va faollik.

Ta'limning ko'rsatmali bo'lishi. Ta'lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish. Ta'limda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

### **Ta'limni tashkil etish shakllari.**

Ta'limni tashkil etish shakllari xakida tushuncha berish. Darsga bulgan talablar xakida.An'anaviy darslarni tashkil etish uslubiyoti. No'anaviy darslarni tashkil etish uslubiyoti.Dars jarayonida talabalarni uzlashtirish kursatkichlarini taxlil kilib borish.Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishi. Dars rejasini tuzishni urganish. Seminar va amaliy-tajriba ishlar shaklidagi mashgulotlar.

### **Ya.A.Komenskiy - didaktikaning asoschisi sifatida.**

Ya.A.Komenskiyning ijtimoiy pedagogik faoliyati va uni ta'lim – tarbiyani rivojlantirishga qo'shgan xissasi. Ya.A.Komenskiy tamonidan yaratilgan “Buyuk didaktika”, “Onalar maktabi” asarlarida pedagogikaga oid qarashlar. Ya.A.Komenskiyning sinf – dars sistemasiga asos solishi va uni rivojlantirishga qo'shgan xissasi.

### **Ta'limni tashkil etishda texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish**

Iqtisodiy fanlarni o'tishda texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanishning axamiyati.Ta'lim vositalari turlari. Real vositalar. Texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari.Proyektor bilan ishlashning afzalliklari. Microsoft Power Point singari kompyuter dasturlari yordamida darslarga tayyorgarlik ko'rish. Multimediya rivojlanayotgan axborot texnologiyasi ekanligi xaqida.

### **O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish.**

O'qitishning asosiy shakllari ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi auditoriyada tashkil etilishi. Ularni tashkil yetish mavzular murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqtoriga ko'ra avvaldan rejalashtirilishi, o'quv saotlari ajratilinishi. Bilim olish, maxsus malakaga ega bo'lish, talablarini dunyo qarashini shakllantirishda auditoriyada o'tilgan darslardan tashqari talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarning ahamiyati. Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish shakllari, mustaqil ishlarning turlari, mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalar vaqtini to'g'ri taqsimlashning ahamiyati.

### **Tarbiya nazariyasi.**

Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari. Tarbiya jarayonining jamiyat tarakkiyotidagi roli. Barkamol shaxsni shakllanishida tarbiya usullari va turlarining ahamiyati.

Tarbiya nazariyasi. Buyuk allomalarning tarbiya sohasidagi pedagogik fikrlari, tajribalari.

Tarbiya metodlari. O'qituvchi-pedagog ijodiy faoliyat egasi. Tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchilarning kizikishlari, imkoniyatlari, talab va takliflarini xisobga olib tashkil etish.

Tarbiyalanuvchilarni milliy goya, milliy mafkura ruxida tarbiyalash, vijdon va uni tarbiyalash, mehnat tarbiyasi, akl tarbiyasi, erkin fikrlash ruxida tarbiyalash, odob-axlok asoslari. Tarbiya metodlarini optimal tanlash va samarali qo'llash shartlari. Tarbiya metodlarini takomillashtirish.

### **Tarbiyaning kelib chiqishi.**

Ijtimoiy tuzumlarda ta'lim-tarbiya va uning mazmuni. Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim – tarbiya, pedagogik qarashlar. Jahon pedagogika fani rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk pedagoglarning ijtimoiy pedagogik faoliyatlari va pedagogik qarashlari.

### **Oilada tarbiya asoslari. Xozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari.**

Yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan "Barkamol avlod yili"

dasturining to'qqizinchi bo'limida "Yosh oilalarga g'amho'rlikni kuchaytirish va ularga huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash hamda sog'lom va mustahkam oilani barpo etish uchun shart-sharoitlar yaratish" xaqida fikr bildirilganligi.

Oilada bola tarbiyasi. Oilani mustaxkamlash tugrisidagi Davlat va xukumat gamxurligi. Buyuk mutafakkirlar oila tarbiyasi xakida. Oila tarbiyasida milliy an'analar va umuminsoniy kadriyatlardan foydalanish. Oila-umuminsoniy kadriyat va jamiyatning birlamchi asosi sifatida. Oilada xayot, uning urf-odatlarini, an'analari, fukorolik yetukligi va madaniy munosabatlarning tarbiya jarayoni va natijalariga ta'siri. Oilada bola xayotini uyushtirish: kun tartiboti, majburiyatlari, talablar, bolalarning uy mehnatida ishtirok etishi.

### **Ta'lim tizimini boshqarish asoslari**

Boshqarishning ilmiy asoslari qoidalari, boshqarish shakllari, boshqarish turlari, boshqarish Nizomi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, ta'lim tizimini boshqarish, o'z-o'zini boshqarish, demokratiya, oshkoralik, ilmiylik, jamoatchilik, oliy va o'rta maxsus ta'limni boshqarish tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.



### **Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar**

Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar, qadimgi davrlarda tarbiyaning kelib chiqishi va uni kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy odamlar xayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Eng kadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari. «Avesto» eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorlik namunasi ekanligi va uning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati. Sugdiyona, Baktriya, Xorazm davlatlarida ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Xalq ogzaki ijodida ta'lim-tarbiya mazmuni va usullarining ifodalanishi.

### **O'zbek xalq pedagogikasi. Uni ta'lim tarbiyada tutgan o'rni.**

Xalq pedagogikasi haqida ma'lumot. O'zbek xalq pedagogikasi. Uning ta'lim-tarbiyadagi o'rni. Milliy kadriyatlar va uning barkamol insonni tarbiyalashdagi roli. «Avesto» eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorlik sifatida. Yoshlarga o'zbek xalq pedagogikasining asosiy manbalari haqida tushuncha berib, ularni ma'naviyatini oshirish.

Xalq pedagogikasini bekiyosligi, ta'sirchanligi, serkirraligi. Xalq pedagogikasi ijtimoiy va maishiy – axloqni xayotning barcha tamonlarini, xalq ogzaki ijodi, kadrshunoslik, marosimshunoslikning yetakchi yunalishlarini, diniy-axlokiy ta'limotni uz ichiga olishi. Zardushtiylik ta'limoti. O'zbek xalq pedagogikasining asosiy manbasi.

### **VII-IX asrlarda Movarounnaxrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar**

VII-IX asrlarda Movarounnaxrda islom dini yoyilishining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Islom dini tarkalgandan keyin Movarounnaxrda ta'lim tizimi. Musulmon maktab va madrasalarda talim – tarbiya mazmuni. Kur'oni Karim mukaddas falsafiy axlokiy asar sifatida. Al-Gazzoliy islom falsafasi va pedagogikasining asoschisi sifatida. Xadis ilmining paydo bulishiva uning tarbiya tarakkiyotidagi urni. Imom al Buxoriyning, at Termiziyning va boshka muxaddislarning Xadis ilmini yaratishdagi xizmatlari. Imom al Buxoriyning «As – saxix», «Al – adab al- mufrad» asarlarining inson ma'naviy kamolatini tarkib topishidagi urni. Islom dinida ota-onaga xurmat, ota-onaning farzand oldidagi burchlari, ezgulik, yaxshilik, kamtarlik, oliyjanoblik, insoniylikka xos bulgan barcha yaxshi xislatlar xakida.

### **Sharq uyg'onish davri va bu davrda pedagogik fikr taraqqiyoti**

Sharq uyg'onish davrida ilm-fan, madaniyatning rivojlanishi, al Xorazmiy va al Fargoniyning ilmiy me'rosi va ularning didaktik karashlari. Al Farobiyning ijtimoiy pedagogik karashlari va uning ilmiy pedagogik merosidan foydalanish. Abu Rayxon Beruniyning ilmiy merosi va uning pedagogika fani tarakkiyotidagi urni. Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik xamda didaktik goyalari. Sharq uyg'onish davri inson muammosi ma'naviy soxasidagi asosiy masala xisoblanishi xakida. Yusuf Xos Xojibning «Kutadgu bilig» asari ta'lim-tarbiyaga oid asar sifatida. Xalifa Xorun ar –Rashid va uning ugli Ma'mun davrida Bogdodda «Baytul-xikma» (donishmandlar uyi, xozir akademiya ma'nosida) tashkil topishi.

### **XIV-XV –asrlarda Temur va temuriylar davrida ijtimoiy xayot, madaniyat, ta'lim-tarbiya**

XIV-XV –asrlarda Movarounnaxrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Soxibkiron Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnak topishi. Soxibkiron Amir Temurning ma'rifiy karashlari va uning pedagogika fanida tutgan urni. Mirzo Ulugbekning ilmiy me'rosi va tarbiyaviy karashlari. Tabiiy fanlarni ukitishni rivojlanishida

Mirzo Ulugbekning ilm-ma'rifat soxasidagi xizmatlari. Uning davrida maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiya tizimi. Zaxiriddin Muxammad Boburning ma'rifiy axlokiy karashlari. «Xatti Boburiy» va «Boburnoma» asarlarining didaktik xususiyatlari va ta'limiy-tarbiyaviy axamiyati. Amir Temur va temuriylar davri Movarounnaxrda iktisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanish davri sifatida.

### **XVI-XVIII asrlarda pedagogik fikrlarni rivojlanishi va madaniyat, ta'lim-tarbiya**

XVI-XVIII asrlarda madaniyat va pedagogik fikrlarni rivojlanishi. Ushbu davrda ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyati. Xonliklar davrida (Qo'qon xonligi, xiva xonligi, Buxoro xonligi) madaniyat va pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Xonliklar davrida ta'lim-tarbiyaning mazmun va mohiyati.

### **Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy xayot, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti**

Turkistonda jadidchilik xarakterini vujudga kelishi, ijtimoiy – siyosiy uzgarishlarni amalga oshishi xakida. Yangi usul maktablarning tashkil topishi. Abdurauf Fitrat, Maxmudxuja Bexbudiylarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatlari. Avloniyning xayoti va ijod yuli. Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar. «Birinch muallim» («Muallimi avval»), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy») asarlari xakida. «Turkiy guliston yoxud axlok» asarida komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan goyalar: a) akliy tarbiya, b) vijdonni ulug'lash, v) Vatan muxabbati, g) inson odobi xakida, d) muxabbatdan yaralgan dune, ye) jaxolatni koralash, j) xulosalar. Avloniyning ta'lim-tarbiya tugrisidagi karashlarining axamiyati.

### **Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi**

Rivojlangan davlatlar Germaniya, Angliya, Fransiyada ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif tarakkiyotining asosiy yunalishlari. AqSh da ta'lim tizimining tuzilishi. Ta'lim bosqichlari. Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi, bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimi. Bu davlatlardagi ta'lim tizimining yutuqlari va kamchiliklari. Rivojlangan xorijiy davlatlar va Mustakil Uzbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi uzaro uygunlik masalalari.

### **Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi**

Sivilizasiya beshigi bo'lmish Qadimiy Gresiya faylasuflarining pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan xissasi. O'rta asrlarda pedagogika fanining rivojlanishi. Xalq pedagogikasining rivojlanishi. O'rta asrlarda pedagogika fani xaqidagi fikrlar (Tertulian, Avgustin, Akvinat). Uyg'onish davri pedagogikasi (Rotterdamskiy, F.Rable, M.Monten, de Feltre). Pedagogikaning filosofiya fanidan ajralib chiqishi.

### **3. O'QUV KURSI BO'YICHA MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI**

Doimo takomillashtirish, ijodiy aktivligini yuqorilashtirish va malakasini, kiritilgan yangiliklar va innovasiyalarga mos bilim jarayonini muvofiqlashtirishi zarurligi xaqida. Masofaviy o'qitishni ijtimoiy ahamiyatli masalalarni yechishga ta'sir etishi lozimligi xaqida. Masofaviy o'qitishning tashkiliy asoslari. Masofaviy o'qitish nazorati. Masofaviy o'qitishning afzalliklari.

O'zbekiston o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg'or davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollari belgilovchi xujjat sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Xukumati axborot texnologiyalari dasturiy vositalari, ma'lumotlarning axborot bazalari, multimedia asosida ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini axborot tarmog'i bilan ta'minlash asosida jahon andozalariga mos keladigan kadrlar tayyorlash masalalariga e'tiborni susaytirmay kelmoqda. Uzluksiz ta'limga o'tish sharoitida ta'lim muassasalarining bu sohadagi asosiy vazifalarini aniqlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Kompyuterlash tizimini yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlar to'g'risida»dagi qarorida pedagogika fani va amaliyoti oldiga «... o'rta va oliy ta'limning ta'lim standartlariga muvofiq ravishda elektron o'qitish bazasini yaratish, ta'lim muassasalarining axborot infratuzilmasini shakllantirish, barcha o'quv muassasalarida ingliz tilini chuqur o'rgatish, shuningdek, respublika axborot tarmog'ida lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilidan foydalanishning standartlashtirilgan mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish dasturiy chora-tadbirlar...»ni ishlab chiqish yuklatilgan.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarni joriy etish to'g'risida»gi PF-3080-sonli farmoni va ushbu farmonni bajarilishi yuzasidan Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 8-iyunda «2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi qarorida juda to'g'ri ta'kidlanganidek, uzluksiz ta'lim tizimida, shu jumladan, oliy o'quv yurtida ta'lim jarayonini tashkil etishning hozirgi xolati ilmiy-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tez o'sib boruvchi talablariga to'liq javob bermaydi. Boshqacha qilib aytganda, aksariyat ko'pchilik mutaxassislar tayyorgarligida axborot texnologiyalari o'qitishning modulli tizimi uchun xos bo'lgan sifatlar - bilimlarning xarakatchanligi, mustaqil va tanqidiy fikrlash, xar qanday faoliyatda ijodiylik, moslashuvchanlik va x.k. sust ifodalangan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jaxon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim xosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-xoxishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim obyektiv borliqdagi voqeya-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustaqil o'qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo'ladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi xolatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda «Pedagogika» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyiligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi subyektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat

mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

Keltirilgan konseptual yo'riqlarga asoslangan holda, «Pedagogika» kursining maqsadi, tuzilmasi, o'quv axborotining mazmuni va xajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum sharoit va o'quv rejasida o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni, kommunikasiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishlash usuli.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikasiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blis-so'rov, oraliq, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** O'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

# MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

**1-MAB3Y:**

**PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA**

## 1.1.Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O'quv soati: 6 soat</i>	<i>Talabalar soni: 60 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	Kirish – ko'rgazmali ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Pedagogika fanini predmeti, maqsadi va vazifalari.</li> <li>2.Pedagogika fanining asosiy tarmoqlari.</li> <li>3.Asosiy pedagogik kategoriyalar.</li> <li>4.Pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqasi.</li> <li>5.Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.</li> </ol>
<i>Ukuv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga o'quv kursi xaqida to'liq ma'lumot berish, pedagogika fanining kategoriyalari, ilmiy tadqiqot metodlari xaqida bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyat natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>•pedagogika fanini maqsadi, vazifalari xaqida umumiy tushuncha berish, fanni o'quv jarayonida tutgan o'zni bilan tanishtirish;</li> <li>•uquv predmeti xaqida umumiy tushuncha berish va asosiy adabiyotlar bilan tanishtirish;</li> <li>• pedagogika fanining asosiy tarmoqlari xaqida ma'lumot berish;</li> <li>•asosiy pedagogik kategoriyalarni tushuntirish.</li> <li>• pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqalari xaqida ma'lumot berish;</li> <li>•pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini tushuntirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• pedagogika fanini maqsadi, vazifalari, fanni o'quv jarayonida tutgan o'zini yoritib beradi;</li> <li>• o'quv predmetining stukturasi tushuntiriladi;</li> <li>• pedagogika fanining asosiy tarmoqlarini ko'rsatib, izohlab beradi;</li> <li>•asosiy pedagogik kategoriyalarni sanab tushuntiradi.</li> <li>• pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqalari yoritib beriladi.</li> <li>•pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini ko'rsatib, mazmunini yoritadi.</li> </ul>
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, aqliy xujum metodi.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruzalar matni, marker, doska, kodoskop, skotch slaydlar, tarqatma materiallar,qog'ozlar.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Ommaviy, jamoaviy.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Nazorat savollari.

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**  
**(1 – mashg'ulot)**

<i>Ish bosqichlari va mazmuni</i>	<i>faoliyat mazmuni</i>	
	<i>uqituvchining</i>	<i>Talabaning</i>
I. Kirish boskichi (15 dakika)	<p>1.1. O'quv predmeti nomi bilan tanishtiriladi, predmet xaqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Mavzu nomi bilan tanishtiradi. O'tilayotgan mavzu kirish ma'ruza tarzida tashkil etilishi e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Semestr davomida pedagogika kursi bo'yicha o'tiladigan mavzular, ularga ajratilgan soatlar (1-slayd) va talabalarni shu predmetni o'zlashtirishdagi reyting tizimi (joriy, oraliq, yakuniy nazorat ballari) bilan tanishtiriladi. (2-slayd).</p> <p>1.3. Bugungi mavzu nomi, rejasi bilan tanishtiriladi va unga izox beriladi.</p>	<p>Eshitadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar.</p>
II. Asosiy bosqich (55 dakika)	<p>2.1. Pedagogika fanini predmeti, maqsadi va vazifalari xaqida umumiy tushuncha beriladi. Birinchi rejani «insert» texnikasi orqali taxlil qilish topshiriladi va ma'ruza matni tarqatiladi, «insert» texnikasidan foydalanish tushuntiriladi. (1- ilova)</p> <p>Talabalar bajargan ishlari taxlil qilinadi.</p> <p>2.2. Pedagogika fanining asosiy tarmoqlari xaqidagi ma'lumotlar bilan talabalarni tanishtiriladi. (3-slayd).</p> <p>2.3. Asosiy pedagogik kategoriyalar xaqidagi ma'lumotlarni pedagog marker orqali slaydga yozib, kodoskop orqali ko'rsatadi. Talabalar bilan xamkorlikda asosiy pedagogik kategoriyalarga izoh beriladi. (4- slayd).</p>	<p>Eshitadilar, taxlil qiladilar.</p> <p>Matnni ko'rib chiqadilar va berilgan belgilarni qo'yib chiqadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar.</p>
III. Yakunlovchi bosqich (10 dakika)	<p>3.1. Mavzuni uchta rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.</p> <p>3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag'batlantiradi.</p> <p>3.3. Savollar berish orqali bilimlar mustahkamlanadi. (2- ilova).</p> <p>3.4. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beriladi: mavzuning qolgan ikkita rejasini mustaqil o'rganish.</p>	<p>Tinglashadi, savollar berishadi.</p> <p>Savol – javobda qatnashadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p>

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**  
**(2 – mashg'ulot)**

<i>Ish bosqichlari va mazmuni</i>	<i>faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	<i>Talabaning</i>
I. Kirish bosqichi (5 dakika)	1.1. Eslatiladi: mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va bugungi darsda o'tiladigan rejalari. 1.2. Baholash mezonlari e'lon qilinadi. (3-ilova) 1.3. Dars so'ngida o'tilgan mavzu bo'yicha test o'tkazilishi xaqida ogohlantiriladi. (max 2 ball)	Eshitadilar.  Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (60 dakika)	2.1. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo'llab, umumiy savol beriladi: «Pedagogika fani nimani o'rgatadi?» «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar bilan tanishtiriladi. (4-ilova) 2.2. Rejadagi to'rtinchi savol, ya'ni pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqasi xaqidagi ma'lumotlar ekranda ko'rsatiladi va pedagog tamonidan izoxlab beriladi. (5- slayd). 2.3. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari (6- slayd) orqali talabalarga ko'rsatiladi va xar bir ilmiy tadqiqot metodi pedagog tamonidan chuqur yoritib beriladi. Asosiy ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qilinadi. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini mustahkam o'zlashtirishlari uchun 6 ta guruhga bo'linadi va ekspert varaqlari tarqatiladi. (5-ilova) Guruhda ishlash qoidasi, vazifani bajarish qoidasi tushuntiriladi. Guruhlar ishini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi.	Eshitadilar. Yozib oladilar.  Javoblarni doskaga yozib boradi, taxlil qiladi. Yozib oladilar, eshitadilar  Fikrlarini bayon qiladilar.  Gurhlarga bo'linadilar Guruh sardorlari ishlarini taqdim qiladi. Boshqa guruh a'zolari savollar beradi. Sardorlar javob beradi. O'zaro ishlarini taxlil qilib, baholaydi.
III. Yakunlovchi bosqich (15 dakika)	3.1. Mavzuga umumiy xulosa qilinadi, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Guruh ishlarini baholarini e'lon qiladi. Guruhni baholash mezonini tanishtiriladi. (6-ilova). 3.3. Test yechish uchun qog'oz tarqatiladi. Tushuncha beriladi. Ekranda test savollari ko'rsatiladi. (7- slayd). Test savollarini baholash natijasi (max 2 ball) keyingi darsda e'lon qilinishi aytiladi. 3.4. Mustaqil ishlash uchun ma'ruzadagi keyingi mavzuni uchta rejasini o'qib kelish topshiriladi	Tinglashadi.   Tarqatilgan qog'ozga familiya, ism, guruhlarini, test nomerlarini va javoblarini yozib pedagogga topshiradilar. Yozib oladilar



## Fan bo'yicha o'quv soatlarining taqsimlanishi

№	Mavzu	Auditoriya soatlari				Mustaqil ish	Jami
		Jami	Shu jumladan:				
			Ma'ruza	Semenar (Amaliy)	Laboratoriya		
<b>3-4 semestr</b>							
1	Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.	4	2	2		4	8
2	Pedagogika fanining tarmoqlari.	2	2			4	6
3	Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari.	2	2			4	6
4	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.	6	2	4		6	12
5	Shaxs shakllanishining umumiy qonuniyatlari.	6	2	4		6	12
6	O'spirinlik davrida xarakterni individual xususiyatlari va unda tarbiyaning roli.	6	2	4		6	12
7	O'qituvchi mahoratining asoslari.	14	4	4	6	6	20
8	Didaktika – ta'lim nazariyasi.	14	4	6	4	6	20
9	Ta'limni tashkil etish shakllari.	10	2	2	6	6	16
10	Ya.A.Komenskiy - didaktikaning asoschisi sifatida.	4	2	2		6	10
11	Ta'limni tashkil etishda texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish	6	2	4		6	12
12	O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish.	4	2	2		6	10
13	Tarbiya nazariyasi.	10	2	4	4	6	16
14	Tarbiyaning kelib chiqishi.	2	2			4	6
15	Oilada tarbiya asoslari. Xozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari	10	2	2	6	6	16
16	Ta'lim tizimini boshqarish asoslari	6	4	2		6	12
17	Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.	4	2	2		6	10
18	O'zbek xalq pedagogikasi. Uni ta'lim tarbiyada tutgan o'rni.	8	2	2	4	6	14
19	VII-IX asrlarda Movarounnaxrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.	6	4	2		6	12
20	Sharq uyg'onish davri va bu davrda pedagogik fikr taraqqiyoti.	4	2	2		6	10
21	XIV-XV asrlarda Temur va temuriylar davrida ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim-tarbiya.	8	4	4		6	14
22	XVI-XVIII asrlarda pedagogik fikrlarni rivojlanishi va madaniyat, ta'lim-tarbiya.	2	2			4	6
23	Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.	4	2	2		6	10
24	Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi	4	2	2		6	10
25	Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.	4	2	2		6	10
	<b>Jami:</b>	<b>150</b>	<b>60</b>	<b>60</b>	<b>30</b>	<b>140</b>	<b>290</b>

**Baholash mezonlari: «Pedagogika» fanining umumiy kursi bo'yicha talaba quyidagi reyting bali asosida baholanadi.**

86 – 100 ball «a'lo»

71 – 85 ball «yaxshi»

56 – 70 ball «qoniqarli»

Joriy baholash – 35 ball.

Oraliq baholash – 35 ball

Yakuniy nazorat – 30 ball.

Xozirgi kunda pedagogikani asosiy tarmoklari sifatida quyidagilarni keltirib utamiz.

**Yosh davrlari pedagogikasi** mazkur guruhlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi hamda eng avvalo ularni tarbiyalanuvchilarning ukuv muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi.

**Katta yoshdagilar pedagogikasida** oliy o'quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va metodikasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmoqi sifatida oliy ukuv yurti pedagogikasining shakllanayotganligi, uning aniqlashib borayotganligi ko'zga tashlanadi.

Milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan **harbiy pedagogika** sohasi shug'ullanadi.

Bulardan tashqari **oila pedagogikasi** bugungi kundagi dolzarb vazifalardan birini tashkil etib, oilalarda, oila markazlarida, mahallalarda, jamoat tashkilotlarida, oila-nikoh muassasalarida amalga oshirilayotgan tadbirlarda namoyon bo'ladi.

Umumta'lim ukuv yurtlarida emas, balki yordamchi ukuv yurtlarida shug'ullanishlari mumkin bo'lgan shaxslar ya'ni, ko'rish, eshitish, so'zlash a'zolarida kamchiliklari bo'lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiyalash va ta'lim berishning o'ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar pedagogika fanining maxsus guruhini tashkil etadi. Pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus guruhga birlashtirilgan.

**Defektologiya fanlari** o'z navbatida alohida mustaqil bo'lgan tarmoqlarga bo'linadi:

**Surdopedagogika** - kar va gung tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan;

**Tiflopedagogika** - ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi bilan;

**Oligofrenopedagogika** - aqli ojizlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

**Asosiy pedagogik kategoriyalar quyidagilardan iboratdir:**

**1. Tarbiya**-O'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va ma'suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida shakllanib boradigan jarayondir.

**2. Ta'lim** – maxsus tayyorlangan kishilar raxbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, ikki tamonlama xarakterga egadir. O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijani beradi. Ta'lim jarayonini mazmunini bilim, ko'nikma va malaka tashkil qiladi.


**Bilim** – bu o'quvchilar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bilimni xayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

**Ko'nikma** – mashq qilish natijasida beriladigan xarakterlar yig'indisidir.

Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali **malakaga** aylanadi.

Bilim asosida ko'nikma va malaka paydo bo'ladi. Bilim baxsda kerak bo'lsa, ko'nikma mexnatda, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

**3. Ma'lumot** – ta'lim – tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

**Pedagogikani boshqa fanlar bilan aloqasi****Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:**

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat usuli (yakka tartibda, guruh bilan )
3. Bolalar ijodini o'rganish usuli.
4. Test usuli
5. Ma'lumotlarni tahlil qilish usuli.
6. Eksperiment-tajriba-sinov usuli.
7. Statistika ma'lumotlarini taxlil qilish usuli.
8. Matematika va kibernetika usuli.

**Mavzu bo'yicha test savollari.****1. Bilim bilan bilishning farqi nimada?**

- A. Bilim-bu-jarayon, bilish shu jarayonning mahsuli
- B. Bilim birlamchi, bilish ikkilamchi
- C. Bilimning hosilasi bilish
- D Barcha javoblar to'g'ri

**2. Yoshlarning intellektual kamoloti nimaga bog'liq?**

- A. Ma'naviy o'z-o'zini anglash, kelajakka ishonish, milliy mafkurani bilishga
- B. Ota-onani e'zozlash, kattalarni hurmat qilishga.
- C. Sport bilan shug'ullanish, musobaqalarga qatnashishga.
- D. Erkin fikrlash, o'z fikrini himoya qilishga.

**3. Pedagogik muhit deganda nimani tushunasiz?**

- A. Pedagogik muhit - pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar tizimidir.
- B. Pedagogik muhit-dars jarayonidir
- S. Pedagogik muhit - pedagog va talaba o'rtasidagi munosabatlar yig'indisi
- D.Pedagogik muhit-shaxslararo munosabatlar tizimidir.

**4. Pedagogik faoliyat tushunchasiga ta'rif bering?**

- A. Tarbiyachining ilmiy ishlar olib borishi
- B. Tarbiya jarayonini tashkil etish
- C. Pedagogik faoliyat - estetik, ahloqiy, siyosiy va iqtisodiy maqsadga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan uylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.
- D. Bevosita pedagog va talabaning faoliyati.

**5. Ma'lumot nima?**

- A. **Ma'lumot** - o'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib talabada bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligini, bilim qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligin, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanligini anglatadi.
- B. **Ma'lumot** - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan pedagog-talaba-pedagog muloqati bo'lib, uning natijasida talabada ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi.
- C.**Ma'lumot** - Odamlarning ma'lumoti faqat ta'limninggina natijasi bo'lib qolmay, balki ota-ona va oila tarbiyasi o'z-o'zini tarbiyalash va ommaviy axborot vositalarining (kino, radio, zangori ekran va xakozo) ta'sirida amalga oshiriladi.
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**6. Ta'lim nima?**

- A. **Ta'lim** - o'quv jarayoni.
- B. **Ta'lim** - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan pedagog-talaba-pedagog muloqatidir
- C. **Ta'lim** - o'quv faoliyati natijasi
- D. **Ta'lim** - pedagog va talabaning o'zaro muloqoti

***1-ilova***

«Insert» metodidan foydalanilganda quyidagilarga e'tibor bering:

1.Ma'ruza matni xoshiyasida quyidagi belgilarni qoldirib o'qing:

V- o'zimdagi bilimlarga mos keladi.

- bilimlarimga qarama - qarshi keladi.

+ men uchun yangi ma'lumot.

? tushunarsiz # aniqlik talab qiladi # qo'shimcha ma'lumot.

2.Olingan ma'lumotlarni quyidagicha tablisa ko'rinishida tartibga tushuring.

Mavzu savollari.	V	-	+	?
1				
2				
3				
4				

2-ilova

**Talabalar bilimini quyidagi savollar bilan mustahkamlanadi:**

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. Sharq pedagogikasi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Ma'lumot nima?
5. maxsus pedagogika deganda nimani tushunasiz?
6. Ta'lim va tarbiyaning birligi deganda nimani tushunasiz?

3-ilova

**Talabalar faoliyatini baholash mezonlari.**

86 – 100 %	2 ball	«a'lo»
71 – 85 %	1,7 ball	«yaxshi»
55 – 70 %	1,4 ball	«qoniqarli»

**Baholash mezonlari**

F.I.O.	Baho	Mezonlar			
		Bilim	faollik	Takliflar	Jami ball
	Ballar	0,8	0,6	0,6	2
	%	40	30	30	100

4-ilova

**«Aqliy xujum» metodini qo'llaganda quyidagi eslatmaga rioya qiling**

- O'rtoqlaring fikrini xurmat qil;
- Qancha fikr ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- Agar fikrlar takrorlansa ajablanma va jaxlingni chiqazma;
- Boshqalar fikrini tanqid qilma;
- Fikrlarni ko'pligi yangi fikrni tug'ilishiga sabab bo'ladi;
- Fikrlaringda bir oz shubha bo'lsa ham, ularni aytishga xarakat qil.

5- ilova (1.1)

**Ekspert varag'i №1  
Kuzatish metodi**

1. Kuzatish metodi qanday metod?
2. Kuzatish metodining qanday turlari mavjud?
3. Kuzatish metodiga bog'liq xayotiy misol keltiring.

### **Ekspert varag'i №2**

#### **Ekspirement metodi**

1. Ekspirement metodi qanday metod?
2. Ekspirement metodi qanday turlari mavjud?
3. Ekspirement metodiga bog'liq xayotiy misol keltiring.

### **Ekspert varag'i №3**

#### **Suhbat metodi**

1. Suhbat metodi qanday metod?
2. Suhbat metodini qo'llashda oldindan nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Suhbat metodiga bog'liq xayotiy misol keltiring.

### **Ekspert varag'i №4**

#### **Test, so'rovnoma metodi**

1. Test, so'rovnoma metodi qanday metod?
2. Testning qanday turlari mavjud?
3. Test, so'rovnoma metodini qo'llab xayotiy misol keltiring.

### **Ekspert varag'i №5**

#### **Bolalar ijodini o'rganish metodi**

1. Bolalar ijodini o'rganish metodi qanday metod?
2. Bolalar ijodini o'rganish metodi pedagogikada qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Bolalar ijodini o'rganish metodiga bog'liq xayotiy misol keltiring.

### **Ekspert varag'i №6**

#### **Statistika ma'lumotlarini taxlil qilish metodi**

1. Statistika ma'lumotlarini taxlil qilish metodi qanday metod?
2. Statistika ma'lumotlarini taxlil qilish metodi pedagogikada qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Statistika ma'lumotlarini taxlil qilish metodini mohiyatini ochib beruvchi xayotiy misol keltiring.

6-ilova (1.1)

#### **Guruhlarda ishlashni baholash**

<i>Guruh lar.</i>	<i>Javob ning to'liqligi. (1,0)</i>	<i>Sxemalar da berilgan ligi(0,4)</i>	<i>Guruh ishtirok chisining faolligi(0,6)</i>	<i>Ballar.</i>	<i>Bahosi.</i>
1					
2					
3					
4					
5					
6					

## 2.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 60 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	Konferensiya asosida tashkil etilgan ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. «Barkamol avlod yili» Davlat Dasturining yosh avlod kamolotidagi o'rni.</li> <li>2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.</li> <li>3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning mazmuni va mohiyati.</li> <li>4. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari – uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi.</li> <li>5. Kadrlar tayyorlash va dars berish mazmunini o'zgartirish – davr talabi.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi haqidagi bilimlarni talabalarda shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• «Barkamol avlod yili» Davlat Dasturining yosh avlod kamolotidagi o'rni xaqida ma'lumot beradi;</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va uning bugungi kundagi axamiyatini ko'rsatib beradi;</li> <li>• Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning mazmuni va mohiyati tahlil qiladi;</li> <li>• Kadrlar tayyorlash va dars berish mazmunini o'zgartirish – davr talabi ekanligi xaqida ma'lumot beradi.</li> </ul>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• «Barkamol avlod yili» Davlat Dasturining yosh avlod kamolotidagi o'rni tahlil qiladi va izoh beradi;</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va uning bugungi kundagi axamiyatini tahlil qiladi;</li> <li>• Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning amalga oshirish bosqichlarini sanab beradi va mazmunini ochib beradi;</li> <li>• Kadrlar tayyorlash va dars berish mazmunini o'zgartirish – davr talabi ekanligini tahlil qiladi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Konferensiya-ma'ruza, baxs-munozara, taqdimot.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza qilish uchun tayyorlangan dokladlar va ularga tegishli bo'lgan ko'rgazmali materiallar, proyektor.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoada ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	<i>Texnik jihozlangan auditoriya.</i>
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, taqdimot, reyting tizimi asosida baholash.

## Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	<i>Talabaning</i>
Tayyorgarlik bosqichi.	<p>1.Keyingi ma'ruza uchun oldindan tuzilgan mavzularning nomlarini talabalar diqqatiga havola qiladi va har bir mavzuning tahminiy rejasi bilan tanishtiradi (1-ilova)</p> <p>Mavzuning kelajakdagi pedagogik faoliyati uchun ahamiyatini tushuntiradi.</p> <p>Ma'ruza-konferensiyasiga tayyorlanish uchun kerak bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini taqdim etadi.</p> <p>Mavzuning har bir rejasi bo'yicha ma'ruzachilarni hamda resenzent va opponentlarni tayinlaydi.</p> <p>Ma'ruzachilarga rejani tuzish va axborotni joylashtirish usullari to'g'risida ma'lumot beradi.</p> <p>Barcha talabalarga mavzu bilan tanishish va ma'ruzachilarga savollar tuzib kelish lozim ekanligini uqtiradi.</p> <p>Ma'ruzachilarni, resenzentlarni va opponentlarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).</p> <p>Ma'ruzachilarga mazmun va ko'rgazmali materallar tayyorlash yuzasidan yo'llanma beradi (3-ilova)</p>	<p>Yozib oladilar.</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>Yozib oladilar</p> <p>Mavzuni mohiyati haqida fikr yuritadilar.</p> <p>Rejalashtiradilar.</p> <p>Baholash mezonlari va reglament bilan tanishadilar.</p> <p>Ma'ruza yozadilar va ko'rgazmali vositalarni tayyorlaydilar.</p>
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1 Mavzuning maqsadi va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>Ma'ruzani konferensiya-munozara usulida o'tkazilishini e'lon qiladi.</p> <p>Konferensiya-munozara usulida darsni tashkil etish tartibi bilan tanishtiradi, baholash mezonlarini va munozara qoidalarini doskaga ilib qo'yadi (4-ilova).</p>	<p>Eshitadilar, yozib oladi-lar,savol beradilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p>
2-bosqich. Asosiy. (60 daqiqa)	<p>2.1.Ma'ruzachilarning nutqlarini va axborotlarini tinglaydi.</p> <p>2.2.Ma'ruzachining ma'ruzasini va resenzent hamda opponentlarning nutqlarini jamoa bo'lib tahlil etishni tashkllashtiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-insert usulida to'ldirilgan jadval asosida savol-javobni tashkil etadi;</li> <li>-ma'ruzaning asosiy fikrlariga diqqat qaratadi va savollar bilan murojat etadi;</li> <li>-tinglovchilarning fikr bildirishiga e'tibor qaratadi;</li> <li>-Ma'ruzaning ilmiy izchil tahlilini ta'minlash maqsadida savollar berib boradi.</li> </ul> <p>Har bir ma'ruza shunday tartibda dovom ettiriladi.</p>	<p>2.1.Ma'ruzachilar o'z ma'ruzalarini talabalar diqqatiga havola etadilar.</p> <p>2.2.Resenzentlar ma'ruzani ilmiy jihatdan tahlil etadilar.</p> <p>Opponentlar ham o'z fikrlarini bayon etadilar.</p> <p>Jamoa bo'lib tahlil etiladi.</p>



3-bosqich. Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni bayon etadi. 3.2. Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini va jamoa faoliyatini baholaydi. 3.3. Uyga vazifa beradi (5- ilova). 3.4. Keyingi mavzuni mustaqil o'qib chiqishni tavsiya etadi va uning rejasi bilan talabalarni tanishtiradi.	3.1. Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.  3.4. O'UM ga murojaat qila-dilar.
---------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------

1-ilova

### **Konferensiyada ko'rib chiqish lozim bo'lgan mavzular.**

- 1.«Barkamol avlod yili» Davlat Dasturining yosh avlod kamolotidagi o'rni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning mazmuni va mohiyati.

#### **1-Mavzu: «Barkamol avlod yili» Davlat Dasturining yosh avlod kamolotidagi o'rni.**

1. Dastur haqida ma'lumot.
2. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida yoshlarning barcha guruhlari qamrab olinadishi haqida.

#### **2-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va uning amaldagi ahamiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga binoan ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi hamda xalqchilligi..

#### **3-Mavzu: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning mazmuni va mohiyati.**

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning amalga oshirish bosqichlari.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining tarkibiy qismlari.

### **Ko'rgazmali materiallar**

1-slayd

- Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни 1997 йил 29 августда кучга кирди ва таълим тизимини жиддий янгилаштириш, ислоҳ қилинишига асос бўлди. Олдинги қабул қилинган қонунлардан (1930, 1949, 1958, 1973, 1984, 1991 йиллар) фарқли ўлароқ, халқ таълими тизимини тузилишининг қуйидаги **янги тамойиллардан** жорий этилди:
- таълим-тарбиянинг инсонпарварлиги ҳамда халқчиллиги;
- таълим тизимининг узлуксизлиги ва изчиллиги;
- давлат таълим стандартлари доирасида ҳар бир кишига миллати, динидан қатъий назар таълим олиши учун имконият яратилганлиги;
- давлат таълим тизимининг илмийлиги ва дунёвийлиги;

Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури 1997 йил 29 августда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис қарори билан тасдиқланган. Унинг асосий мақсади:

Таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш, уни ўтмишдан қолган мафкуравий қарашлар ва сарқитлардан тўла халос қилиш, ривожланган демократик давлатлар даражасида, юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи юқори малакали кадрлар тайёрлаш миллий тизимини яратишдан иборат.

3 ilova

Baholash mezonlari ( ballda)	Qatnashuvchilar			
	Ma'ruzachilar ( I.Sh.)			
1.Ma'ruzaning mazmuni -0.1	1	2	3	4
-mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi-0.2				
2.Ko'rgazmalilik- 0.2				
Jami: eng yuqori ball: 0.5 ball				
<b>OPPONENTLAR ( I.Sh)</b>				
1. Ma'ruzani tahlil qilish -0.1				
-ma'ruzaning ijobiy tomonlarini ochib berish- 0.2				
-ma'ruzada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatish- 0.2				
Jami eng yuqori ball: 0.5 ball.				
<b>Resenzentlar va munozara ishtirokchilari</b>				
1.Savollar				
O'rinli savollar-0.2				
-Qo'shimchalar- 0.3				
Jami eng yuqori ball-0.5 ball.				

**Munozara qoidalari:**

1. Qisqa aniq gapir.
2. Uzoq gaprima, boshqalar ham o'z fikrini bildirsin.
3. His-xayajonga berilma, o'ylab gapir.
4. Opponentning g'oyalarini tushunishga harakat qil.
5. Boshqalarning fikrini xurmat qil.
6. Mavzudan chetga chiqma.
7. O'z fikringni himoya qil.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq**

Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari – uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi ekanligi xaqida esse yozing.

**3-MAVZU:****O'SPIRINLIK DAVRIDA XARAKTERNI INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI VA UNDA TARBIYANING ROLI****3.1.Ma'ruzani olib borish texnologiyasi**

<i>Dars vaqti – 4 soat</i>	<i>Talabalar soni- 60 ta</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan axborot ma'ruzasi</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.O'smirlik davrining o'ziga xos xislatlari.</li> <li>2.O'smirlik davrida xarakter va uning o'zgaruvchanligi.</li> <li>3.O'smirlik davrida ta'lim – tarbiya jarayonida jamoaning roli.</li> <li>4.Guruh raxbarini o'smirlar bilan tarbiya jarayonini tashkil etishi.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> O'smirlik davrining o'ziga xos xislatlari haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• o'smirlik davrining o'ziga xos xislatlari haqida tushuncha beradi;</li> <li>• o'smirlik davrida xarakter va uning o'zgaruvchanligi bilan tanishtiradi;</li> <li>• O'smirlik davrida ta'lim – tarbiya jarayonida jamoaning roli haqida ma'lumot beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o'smirlik davrining o'ziga xos xislatlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar;</li> <li>• o'smirlik davri xarakter turlarini sanab beradilar;</li> <li>• O'smirlik davrida ta'lim – tarbiya jarayonida jamoaning roli haqida ma'lumotlarni tahlil qiladilar.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, «hamkorlikda o'qiyamiz», texnikalar: Insert, blis-so'rov, ZG'XG'U jadvali.
<i>O'qitish vositalari</i>	<i>Ma'ruza, ko'rgazmali qurollar, slaydlar, lazerli proyektor, markerlar, qog'oz bo'laklari.</i>
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	<i>Texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya,</i>
<i>Monitoring va baholash</i>	<i>Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat, reyting tizimi asosida baholash.</i>

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi**  
**(1 mashg'ulot)**

<i>Ish bosqich-lari</i>	<i>O'qituvchi faoliyatining mazmuni</i>	<i>Talaba faoliyatining mazmuni</i>
1 bosqich. Mavzuga kirish (3 daqiqa)	1.1.O'quv mashg'ulotining mavzusi, rejasi, maqsadi (ekranga qaraladi), asosiy savollar, ma'ruza mashg'ulotining natijalari ish uchun belgilangan vaqt bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar va yozib oladilar
2 bosqich. <i>Bilimlar-ni faollash tirish</i> (17 daqiqa)	2.1. Ekranda B-B-B jadvali bilan ishlash ko'rsatiladi (3 ilova). Ish daftariga jadval chizib, ma'ruza rejasida ko'rsatilgan savollarni 2 chi ustunda to'ldirish kerakligi haqida topshiriq beradi. 2.2. Tekstni o'qib, berilgan savollarga javob bering va vaqtida belgi qo'ying? Insert texnikasidan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi.(1-2 ilova) (1) Ular nimani biladilar? (mustaqil gapirishlari ham mumkin) (2) Nimalar bilishni xohlaysiz? (3) Qanday qo'shimcha axborotlar talab qilinadi? Kalitli tushunchalardan foydalanib jadvaldagi 3-4 ustunlarni to'ldirish kerakligi aytiladi (4 ilova) 2.3. Blis-so'rov o'tkazadi. Bir nechta javoblarni eshitadi va ishni mini-guruhda davom ettirish kerakligini ta'kidlaydi.	B-B-B jadvalini chizadilar, ma'ruza rejasida berilgan savolni 2chi ustunda yozadilar.  Jadvaldagi 3-4 ustunni to'ldiradilar. Natijalarini tahlil qiladilar.
3 bosqich Axborotli (55 daqiqa)	3.1.Talabalarni 4 ta mini-guruhga bo'ladi va topshiriqlar beradi: (1) B-B-B jadvalining 4 ustuniga mavzu qismlaridan olingan individual axborotni tahlil qiladi, guruh raqami bo'yicha beriladi: 1 guruh – 1 savolga, 2 guruh-2 savolga va hokazo. (2) 1-2 savollarni ko'rib chiqadilar; (3) turli xil adabiyotlardan foydalanib, birgalikda javob tayyorlaydilar (darslik, ma'ruza matni). (4) B-B-B jadvalida mavzu bo'yicha berilgan savollarni varaqda to'ldirib, ishning natijalarini taqdimotga tayyorlaydilar Guruhda ish boshlashni e'lon qiladi. 3.2. Taqdimot jarayoni muhokamasini tashkil qiladi.	Guruhda ishlaydilar; -har bir guruh a'zosi individual jadvaldagi 4 ustunga kalitli tushunchalarni belgilaydi. -guruhning lideri 4 ustunga savollarni yozishni tashkillashtiradi; B-B-B jadval-ning 5 ustuniga javob tayyorlay-dilar va jamoa bo'lib muhokama qiladilar; -taqdimot varag'iga javob to'ldiradi. Ish natijalari bo'yicha taqdimot qiladilar: -guruh lideri -doskada varaqni iladi (A32 formati) to'ldirilgan B/B/B jadvalidagi savollarini sharhlaydi; savollarga javob beradi; -o'zining shaxsiy fikrlarini bildiradi.

	<p>3.3. Har bir guruh javob tayyorlaganidan so'ng:  (1) butun auditoriyani qanday o'zlashtirganligini aniqlash maqsadida savollar beradi: «Biz nimani o'rgandik?»,  (2) blis-so'rov o'tkazadi. Ko'rgazmali o'quv materiallari namoyish qilinadi. (5 ilova)</p>	Savollarga javob beradilar.
	<p>3.4. O'quv faoliyati natijalari muhokama qilinadi, B-B-B jadvaldagi 5 ustunni individual to'ldirish kerakligi aytiladi.  Ish yakunida slaydlar ko'rsatiladi. (5 ilova)</p>	3.4. B-B-B jadval-dagi 5 ustunni individual tarzda to'ldiradilar (2 minutgacha)
4 bosqich Yakunlovchi (5 daqiqa)	<p>4.1. O'quv faoliyati natijalari bo'yicha yakuniy xulosalar chiqariladi, liderlarning chiqishlari baholanadi, faol qatnashganlar rag'batlantiriladi.</p>	Eshitadilar.
	<p>4.2. Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi: «O'smirlilik davrini muvaffaqiyatli o'tishda ijtimoiy muhitning roli».</p>	Yozadilar.

**Insert texnikasi**

**Insert** – bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun talabalarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qolmasligi mumkin. Bu esa nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan hollarning misolidir.

**Insert** – bu matn bilan ishlanganda faollikni qo'llab–quvvatlash uchun kuchli vositadir. Talaba matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab–quvvatlash uchun kuchli vositadir.

Talaba matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

V – bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi axborot

- - bilganlarimga zid keladi

? – meni o'ylantirib qo'ydi.

**Matnni Insert usulida o'rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin**

“V”	“-”	“+”	“?”
“Ha” o'qiganlaringiz dan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot.	“Manfiy” o'qiganlari giz, bilganlari gizga qarama-qarshi ma'lumot.	“Musbat” o'qiganlari giz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot	“Savol” o'qiganlaringiz dan siz uchun tushunarli bo'lmagan yoki shu haqida ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot.

No	Mavzu bo'yicha savollar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1				
2				
3				
4				

**Kalitli tushunchalar**

1.	O'g'il bolalar	11.	Lobilli tur.
2.	Qiz bolalar	12.	Astenonevrotik tur
3.	Shaxs identifikasiyasi	13.	Ortiqcha vahimachilik Injiqlik
4.	O'smir shaxsning takomillashuvi	14.	Toliqishlik
5.	ijobiy mavqiyeni egallash	15.	Sezintivli tur
6.	salbiy emosiyaalar	16.	Shizoidli tur
7.	harakterning aksentuasiyasi	17.	Epileptoidli tur
8.	Gipertimli tur	18.	Namoyishkor (isteroid)
9.	Siklodli tur	19.	Ikkiyuzlamachilik
10.	Ortiqcha serjahllik	20.	Komformizm tur

## O'quv-vizual materiallar

1-slayd

- **Ўсмирлик даври** энг мураккаб ва шу билан бирга мухим тараққиёт босқичидир. Илк ўсмирлик 11-13 ёшни, катта ўсмирлик - 14 - 15 ёшларни ўз ичига олади. Бу даврнинг энг мухим ҳислати шундан иборатки, у болаликдан ўспиринлик, катталиққа, ёшлиқдан етуқликка ўтиш давридир.  
Ўсмирлик - организм тараққиётидаги шиддат ва нотекислик билан характерланиб, бу даврда тананинг интенсив тарзда ривожланиши ва суякларнинг қотиши рўй беради. Юрак ва қон томирлар фаолиятида ҳам нотекислик бўлиб, бу ҳам бола феълининг ўзгарувчан, динамик ва баъзан номаъқулликлар ва ноқулайликларни келтириб чиқаради. Булар албатта асаб тизимида ҳам ўз таъсирини кўрсатиб, бола тезга аччиқланадиган ёки тормозланиш юз берганда анчагача депрессия ҳолатидан чиқолмайдиган тушқунликда қолиши ҳам мумкин.

2-slayd

- Мантиқан фикрлашга ўрганиши эса унга ўзича ақлий операцияларни амалга ошириш, тушунчалар ва формулалар дунёсида ҳаракат қилишга мажбур қилади. Бу ўзига хос *ўсмирлик эгоцентризмнинг* шаклланишига - бутун олам ва унинг қонуниятлари унга бўйсунishi керакдай фикрнинг пайдо бўлишига олиб келади. Шунинг учун ҳам айнан ўсмирлик пайтида болалар ўз ота-оналари билан ҳадеб тортишаверадилар. Аниқ бир тўхтамга келолмаса ҳам тортишиш бирор фиркни изхор қилиш эҳтиёжининг ўзи унга жуда ёқади.
- Шундай бўлишига қарамай, ўсмирлик юқорида таъкидланганидек, қарама - қаршилиқларга бой даврдир. Уни баъзи олимлар «кризислар, таназзуллар» даври ҳам деб атайдилар. Сабаби - бола руҳиятида шундай инқирозий ҳолатлар кўп бўладики, у бу инқирозни бир томондан ўзи ҳал қилгиси келади, иккинчи томондан, уни ҳал қилишга имконияти, кучи ва ақли етишмайди.

3-slayd

- Ўсмир шахснинг такомиллашуви ва шаклланишига туртки бўлган омиллардан бири - ўқув фаолияти мотивларидаги сифат ўзгаришидир. Кичик мактаб ёшидаги боладан фарқли, ўсмир энди фақат билимлар тизимида эга бўлиш, ўқитувчининг мақтовини эшитиш ва «5» баҳоларни кўпайтириш учун эмас, балки тенгқурлари орасида маълум *ижобий мавқени эгаллаш*, келажакда яхши одам бўлиш учун ўқиш мотивлари устивор бўлиб боради. Улар мактабга боргиси келмайди, ўқишга оғриниб келиб, салбий эмоциялар ва ҳавотирлик ҳисларини бошдан кечирадилар (ўртача 20% ўқувчилар). Бу катталарнинг ўсмир билан ишлашини қийинлаштиради.



**4-MAVZU:****O'QITUVCHI MAHORATINING ASOSLARI****4.1.Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.**

<b><i>O'quv soati: 4 soat</i></b>	<b><i>Talabalar soni: 60 ta</i></b>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	Muammoli ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.Pedagogik mahorat haqida tushuncha.</li> <li>2.Pedagogik texnika va uning komponentlari, tarkibiy qismlari.</li> <li>3.Pedagogik odob-axlok va talaba xulq – madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari.</li> <li>4. Pedagogik qobiliyat.</li> <li>5. Pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan muomalasi</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Muammoga kirish va uning yechimini topish orqali pedagogik mahorat tushunchasi, hamda uning pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlovchi omil xaqidagi bilimlarni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• pedagogik mahorat xaqida umumiy tushuncha berish;</li> <li>• pedagogik texnikaga ta'rif berish, uning komponentlari va tarkibiy qismlarini yoritish;</li> <li>• pedagogik odob-axlok va talaba xulq – madaniyatini asosiy omillarini tushuntirish;</li> <li>• pedagogik qobiliyat va pedagogik muomala tushunchasini yoritish;</li> <li>•pedagogik mahoratni shakllanishi, rivojlantirishga ta'sir etuvchi muammoni shakllantirish;</li> <li>•kichik muammochalarni ajratish: <ul style="list-style-type: none"> <li>-pedagogik ko'tarilish bosqichlarini taxlil qilish zarurligi;</li> <li>- pedagogik ko'tarilishning o'qitish jarayoniga va umuman pedagogik faoliyatga ta'sirini ko'rib chiqish;</li> </ul> </li> <li>•kichik muammochalarni va umuman muammoni yechimini topish jarayonini ketma – ketligini tushuntirish;</li> <li>• kichik muammochalar va umumiy muammoni yechimini topishning yo'l – yo'rig'ini topish, hamda yakuniy xulosalar qilish imkonini yaratish.</li> </ul>	<i>O'quv natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• pedagogik mahorat tushunchasiga ta'rif beriladi;</li> <li>•pedagogik texnika tushunchasiga ta'rif beriladi, uning komponentlari va tarkibiy qismlarini sanab ko'rsatib beradi;</li> <li>• pedagogik odob-axlok va talaba xulq – madaniyatining asosiy omillarini tushuntiridi;</li> <li>• pedagogik qobiliyat va pedagogik muomala tushunchalarini yoritadi.</li> <li>• pedagogik mahoratni shakllanishi, rivojlantirishga ta'sir etuvchi muammolarni hamda uning ta'lim jarayonidagi o'rnini o'rganadi;</li> <li>•kichik muammochalarni ajratadi;</li> <li>• kichik muammochalarni va umumiy muammoni yechish yo'llarini aniqlaydi;</li> <li>•taklif qilingan muammo yechimining bir qancha variantlarini taxlil qiladilar va baholaydilar;</li> <li>•muammo bo'yicha yakuniy xulosalar qiladilar.</li> </ul>
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, suhbat, munozara, tezkor so'rov 6-6 texnikasi, Delfi texnikasi.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari,
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Test, nazorat savollari.

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**  
**(1 – mashg'ulot)**

<i>Ish bosqichlari va mazmuni</i>	<i>faoliyat mazmuni</i>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
Tayyorgarlik bosqichi. (5 minut)	Muammoni yaakuniy xulosalarini ishlab chikishdi. Kichik muammoni va har bir kichik muammo bo'yicha oraliq xulosalarni ishlab chiqadi. Muammolarni yechimini topishni va talabalar faolligini hamda ongli faoliyatlarini ta'minlaydigan muammoli savollar va ularning javoblarini ro'yxatini ishlab chiqadi. Muammoga kirish usullari va vositalarini aniqlaydi.	Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini o'rganib chiqadilar.
I. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi. 1.2. O'quv mashg'uloti muammoli shaklda o'tkazilishini aytadi. O'quv mashg'ulotining maqsadi va kutilajak natijalarni shakllantiradi izox beriladi. 1.3. Dars so'ngida o'tilgan mavzu bo'yicha test o'tkazilishi xaqida	Eshitadilar, yozib oladilar.  Eshitadilar, yozib oladilar.
II. Asosiy bosqich (55 minut)	2.1. Talabalar bilimlarini aktivlashtirish maqsadida suxbat o'tkazish. Quydagi savollarni beradi: -kimni biz pedagog deb ataymiz? - Xaqiqiy pedagog deb, qanday pedagoglarni aytishimiz mumkin? -Sizingcha haqiqiy pedagog qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak? -O'qitish jarayoning samaradorligi kimga bog'liq? nima uchun? -Sizingcha mahoratli pedagog qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? Talabalarni faollashtirish jarayonida, ularning yangi mavzu bo'yicha qay darajada ma'lumotga ega ekanligini aniqlanadi. 2.2. Mavzu haqida qisqacha ma'lumot beradi. (Nazariy va amaliy ahamiyatini tushuntiradi). Talabalarni o'quv mashg'uloti jarayonida yechimini topish zarur bo'lgan muammoga kiritadi. Muammoni o'rtaga tashlaydi (1-ilova). 2.3. Muammoni yechimini topish bo'yicha faoliyatni tashkil qiladi, talabalar taklif qilgan muammo yechimlarini ular bilan birgalikda muxokama qiladi, taxlil qiladi. Yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlaydi. 2.4. Muammoni yechimini topish yo'l-	Savollarga javob beradilar.  Eshitadilar. Hosil qilingan muammoni yozib oladilar.  Birdaniga muammoni yechimini topish mumkin emasligini anglyadilar. Yuzaga kelgan tafovutlarni, qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'z fikrlarini

	<p>yo'riqlarini aniqlash faoliyatini tashkil qiladi: birinchi kichik muammoni ishlab chiqadi. Muammoli savollarni talabalar oldiga qo'yadi(1-ilova) va oldindagi faoliyatning o'ziga hos xususiyatlarini tushuntiradi(2-ilova).</p> <p>2.5. Talabalarni kichik guruxlarga bo'ladi(6ta kishilik). Guruxlarda ishni tashkil qiladi.</p> <p>2.6. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Gurux ishlarini natijalarini muxokama qiladilar.</p> <p>Javoblarga qoniqmassa qo'yilgan muammoli savolga o'zi javob beradi.</p> <p>2.7. Birinchi kichik muammoni yechish bo'yicha yo'naltiruvchi takliflar berishni tashkillashtiradi.</p> <p>2.8. Birinchi kichik muammoni yechish bo'yicha oraliq xulosalar keltirishni shakllantiradi.</p>	<p>bildiradilar. Guruhlarda ishlaydilar. Muammoli savollar bo'yicha aniq javoblarni shakllantiradilar. (6 daqiqa ichida). Guruhlarda ishlashni tasavvur etadilar, boshqa guruhlarni javoblarini eshitib, o'z fikrlarini bildiradilar, munozara, tahlil qiladilar. Kichik muammoni optimal yechimini topish bo'yicha xulosa qiladilar.</p>
<p>III. Yakunlovchi bosqich (10 minut)</p>	<p>3.1. Kichik muammoni yechish vaqtidagi talabalar faoliyatini taxlil qiladi. Ularning guruhdagi ishlashlarini, faolligini, tayyorgarligini baholaydi. (2-ilova).</p> <p>3.2. Natijalarni sharxlaydi.</p> <p>3.3. Muammoni to'liq yechimini keyingi o'quv mashg'ulotida topilishini aytadi. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: o'tilgan mavzuni takrorlash va muammoni to'liq yechimini topish yo'llarini o'ylab kelish.</p>	<p>Eshitadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p>

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**  
**(2 – mashg'ulot)**

Ish bosqichlari va mazmuni	faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I. Kirish (5 minut)	1.1. Eslatiladi: mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi, oldingi o'tilgan mashg'ulot bilan bog'laydi, qo'yilgan muammoni, birinchi kichik muammo bo'yicha xulosa va yechimlarni eslatadi.	Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (55 minut)	2.1. Talabalarni o'quv mashg'uloti jarayonida yechimini topish zarur bo'lgan ikkinchi muammoga kiritadi. Muammoli savollarni o'rta tashlaydi (ilova1). 2.2. Ishtirokchilarni 3 ta guruhga bo'ladi. Savollarga javob berishga suyangan holda ikkinchi muammoni yechishga doir fikr bildirishlarini aytadi. Kuzatadi, yo'naltiradi, Rag'batlantiradi. 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Gurux ishlarini natijalarini muxokama qiladilar. Asosiy ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qilinadi. 2.4. Delfi texnikasi orqali kichik muammoni eng yaxshi yechimini topgan guruhlarini baholaydi. (4-ilova). 2.5. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib ikkinchi muammoni yechimiga xulosa keltiradi. 2.6. Asosiy muammoga yakuniy xulosa qilishga talabalarni yo'naltiradi. Javoblarni sharhlaydi, aniqlik kiritadi, to'g'rilaydi. 2.7. Yakuniy xulosa keltiradi.	Eshitadilar.  Guruhlarga bo'linadilar. Har bir guruh o'ziga baholarni tahlil qilish uchun ekspert tayinlaydi. Muammoni xal qilishga doir fikrlar bildiradilar, ekspertlar yozib boradilar. Har bir guruhning ekspertlari muammoni yeimiga oid g'oyalarni taqdim etadilar. Bu g'oyalarning avtorlari himoya qiladilar. Yakuniy xulosa bo'yicha o'z fikrlarini shakllantiradilar.
III. Yakunlovchi bosqich (20 minut)	3.1. Mavzuni umumlashtirib xulosa qiladi, muammoni yechimida faol qatnashgan guruhlar faoliyatini tahlil qiladi. 3.2. Kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida bu bajargan ishlarini muhimligini tushuntiradi. 3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: Test savollarini yechish.	Xatolarini taxlil qiladilar.  Yozib oladilar.

**Muammoni ishlab chiqish kichik muammolar va xulosalar, qaror qabul qilish**

**Muammo:** *Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda pedagog maxoratning zarurligi.*

**Birinchi kichik muammo:** *Ta'lim jarayoni va pedagog faoliyatini har tomonlama tahlil qilish va baholash zarurligi.*

<p>Kichik muammoni yechimini topishda yordam beruvchi muammoli savollar:</p> <p>(1) Nima uchun ta'lim jarayonini va pedagog faoliyatini har tomonlama taxlil qilish hamda baholash zarurligi paydo bo'ldi?</p> <p>(2) Taxlil va baxolashning maqsadi nima?</p> <p>(3) Ta'lim jarayoni va pedagog faoliyatini taxlil qilish tartibini ochib bering.</p> <p>(4) Ta'lim jarayoni va pedagog faoliyati samaradorligiga qanday omillar ta'sir qiladi?</p>	<p style="text-align: center;">Yechim:</p> <p>1. Xozirgi sharoitda xar bir yoshni o'z kelajagini o'zi qurishga tayyorlashga o'rgatish;</p> <p>- har pedagog yoshlarga ta'lim beradigan darajada bilimga ega bo'lishi;</p> <p>2. Zamonaviy yetuk kadrlarni kelajakda bilimli, to'liq fikr yuritadigan, zamonaviy texnikani xar tamonlama egallagan shaxslar qilib ishlab chiqarishga tayyorlab berish.</p> <p>3. Pedagog faoliyatini taxlil qilish tartibi:</p> <p>- bilim saviyasi.</p> <p>- kasbiy mahorat</p> <p>- talabalarni tushunish</p> <p>- auditoriyani ushlay bilish</p> <p>- odilona baholash.</p> <p>- har kungi yangiliklardan xabardor bo'lish.</p>
<p><b>Xulosa:</b></p>	
<p><b>Ikkinchi kichik muammo:</b> <i>pedagog xodimlarni pedagogik mahorati shakillantirish va rivojlantirish zarurati</i></p>	
<p>Kichik muammoni yechimini topishda yordam beruvchi muammoli savollar:</p> <p>(1) Pedagog qanday insoniy xislatlarga ega bo'lishi kerak?</p> <p>(2) Pedagog qanday kasbiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?</p> <p>(3) Mahoratli pedagog bo'lishi uchun yana nimalarga ega bo'lish kerak?</p> <p>(4) Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun pedagogdan nima talab qilinadi.</p>	
<p><b>Xulosa:</b> Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bugungi kunda ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish bo'yicha ta'lim texnologiyasini amalga oshirish kerak bo'ladi.</p>	
<p><b>Umumiy yakuniy xulosa:</b></p>	

### 6-6 texnikasi

6-6 texnikasi tuzilgan jamoani baholashga imkon beradi, tavsia qilingan variantlardagi muammolarni hal qiladi, s'ung ularni alohida algoritm asosida g'ruppalashtiradi.

Kichik guruhlar kamida 6 kishidan iborat b'olib, 6 daqiqa ichida muammo savollarga turli xil muammolarni butunligicha hal qilish uchun konkret bershga u'rgatadi.

Kichik guruhlarda tay'irlangan r'uyhatlar bilan debatlar u'tkaziladi, lekin xato fikrlar, muammo savollar olib tashlanadi. Sistematik i'ul bilan savollar belgilanadi va shu savollar orqali kichik va katta muammolar

Guruhlarni muammolarni hal qilish natijalari ximoyasi b'uladi. Kichik muammo va muammolarni hal qilishda konkret natijalar k'urib chiqiladi.

3-ilova

### Talabalar faoliyatini baholash mezonlari

86 – 100 %	2 ball	«a'lo»
71 – 85 %	1,7 ball	«yaxshi»
55 – 70 %	1,4 ball	«qoniqarli»

### Baholash mezonlari

F.I.O.	Baho	Mezonlar			
		Bilim	faollik	Takliflar	Jami ball
	Ballar	0,8	0,6	0,6	2
	%	40	30	30	100

4-ilova

### «Delfi» texnikasi

#### Qarama -qarshi fikrlarning baholar yig'indisi jadvali

Guruh	Muqobil g'oyalar.								
	1 -guruh.			2-guruh.			3-guruh.		
	D	M	K	D	M	K	D	M	K
<b>Ko'paytma yig'indisi</b>									

D – darajali baho.  
M – muqobil baho.  
K – ko'paytma.

1-eng yuqori ball.  
10-eng past ball.

## 4.2. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Vaqt: 4 soat</i>	<i>Talabalar soni: 30</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.Pedagogik mahorat haqida tushuncha. 2.Pedagogik texnika va uning komponentlari, tarkibiy qismlari. 3.Pedagogik odob-axlok va talaba xulq – madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari. 4. Pedagogik qobiliyat. 5. Pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan muomalasi.
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta'minlash.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari.</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>• mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi;</li> <li>• o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi;</li> <li>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• pedagogik texnika va uning komponentlari, tarkibiy qismlari mohiyatini yoritib bera oladi;</li> <li>• pedagogik odob-axlok va talaba xulq – madaniyatining asosiy omillarini yoritib berib, o'z erkin fikrini namoyon etadi;</li> <li>• pedagogik qobiliyat va pedagogik muomala tushunchalariga izoh beradi, yoritadi.</li> <li>• pedagogik mahoratni shakllanishi, rivojlantirishga ta'sir etuvchi muammolarni hamda uning ta'lim jarayonidagi o'rni o'rganadi;</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, baxs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, «Nima uchun» texnikasi, «Muammoli vaziyat» uslubi.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bor.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

**Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi**  
**(1 – mashg'ulot)**

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish bosqichi. (10 minut)	1.1. Amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi (1-ilova).	Tinglaydilar. O'UM ga qaraydilar.
	1.2. «Nima uchun» texnikasidan foydalanilgan holda talabalarga, «Nima uchun bugungi kunda pedagogik mahoratga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda?» degan savol bilan murojaat qiladi. Bajarilgan ishlarni ko'zdan kechirib xulosalaydi (2-ilova).	o'z fikrlarini erkin bildiradilar. Organayzerni to'ldiradilar.
	1.3. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi.	Interfaol usullardan foydalanilgan holda kichik guruhlariga bo'linadi.
	1.4. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (3-ilova).	O'UM ga qaraydilar.
	1.5. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi (4-ilova).	Topshiriqlar ustida ishlaydilar.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Guruhlarga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi.	Faol qatnashadilar.
III. Yakunlovchi bosqich (10 minut)	3.1.Mavzuni uchta rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag'batlantiradi, baholaydi, yozib oladi. 3.3.Mavzuning qolgan ikkita rejasini mustaqil keyingi darsga o'rganib kelishlari aytiladi.	Tinglashadi.  Yozib oladilar.

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi.**  
(2 – mashg'ulot)

<i>Ish bosqichlari va mazmuni</i>	<i>faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Eslatiladi: mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va bugungi darsda o'tiladigan rejalari. 1.2. Dars so'ngida o'tilgan mavzu bo'yicha test o'tkazilishi xaqida ogohlantiriladi. (max 2 ball)	Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (70 minut)	2.1.Rejadagi to'rtinchi savol, ya'ni tarbiya usullari xaqidagi ma'lumotlar ekranda ko'rsatiladi. (10,11-slayd) 2.2. Tarbiya turlarini mohiyatini yoritib beruvchi (12-slayd) ekranda namoyish etib, ularning xar biriga izoh beriladi. Asosiy ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qilinadi. 2.3.Talabalarni 8 ta guruhga bo'linadi va vazifalar beriladi. (1-ilova). Guruhlar ishini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi.	Eshitadilar. Yozib oladilar.  Yozib oladilar, Eshitadilar fikrlarini bayon qiladilar. Guruhlar vazifalarini muhokama qiladilar, fikrlar bildiradilar, umumiy fikrlarni format qog'ozga yozadilar. Guruhdan bir ishtirokchi chiqib, o'z ishini taqdim qiladi. Berilgan savollarga javob beradi.
III. Yakunlovchi bosqich (5 minut)	3.1.Umumlashtiriladi, yakuniy xulosa qilinadi. 3.2. Har bir guruh baholari e'lon qilinadi. (2-ilova). 3.3. "Didaktika – ta'lim nazariyasi" mavzusini keyingi darsga «insert» texnikasi asosida o'rganib kelishlari aytiladi.	Tinglashadi.  Yozib oladilar.



## Мавзу: Тарбия назарияси.

- Режа:
- 1.Тарбия жараёни хакида тушунча
- 2.Шахс ривожланишига таъсир этувчи омиллар.
- 3.Шахс ривожланишида ёш ва индивидуал хусусиятлар.
- 4.Тарбия усуллари хакида тушунча.
- 5.Тарбия турлари.

### 1.ТАРБИЯ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА

- Тарбия шахсни мақсадга мувофиқ шакллантириш учун уюштирилган педагогик жараён бўлиб, тарбияланувчининг шахсига мунтазам ва системали таъсир этиш имкониятини беради. Тарбия жараёни ўзаро боғлиқ бўлган икки ёқлама фаолиятни педагог ва талаба фаолиятини ўз ичига олади. Тарбия жараёнида тарбияланувчининг онги шаклланади, ҳис-туйғулари ривожланади, ижтимоий ҳаёт учун зарур бўлган ва ижтимоий алоқаларга хизмат қиладиган хулқий одатларни ҳосил қилинади.



## 2. ШАХС РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР.

- **Шахс** - деганда муайян жамиятнинг аъзоси тушунилади. Одам шахс бўлмоғи учун рухий жihatдан тараққий этган, ўз хусусияти ва сифатлари билан бошқалардан фарқ қилиши лозим.
- **Ривожланиш**- деб бола вазнини ошиши, суяк ва мускул тизимининг, таносил аъзоларининг, нерв – функционал фаолиятининг камол топиши, ақл – заковатининг шаклланишига айтилади.

- Туғилган инсон шахс бўлиб шаклланиши лозим. Бу жараён бир қанча омиллар таъсирида содир бўлади ва муайян қонунларга бўйсунди. Одатда шахс шаклланиши учун 4 та асосий омиллар тан олинади. Булар:
  - - биологик омил (ирсият)
  - - ижтимоий мухит
  - - мақсадга мувофиқ амалга ошириладиган таълим – тарбия
  - - ўзининг мустақил фаолияти.

6-slayd

- **2. Мухит** деганда кишига таъсир этадиган ташқи воқеалар йигиндиси тушунилади. Мухит - географик, оилавий, ижтимоий ва бошқаларни киритиш мумкин. Психологларнинг таъкидлашича, инсон боласи қобилият билан эмас, балки бирор бир қобилиятни рўёбга чиқариш манбаи лаёқат билан тугилади. Лаёқат эса мудроқ холда бўлади, уни уйғотиш учун қулай муҳит керак. Масалан, 1920 йилда Хиндистонлик доктор Синг Калкуттанинг Жанубий – Ғарбидаги Миднапур шаҳридаги бўри уясидан иккита қизни топиб олиши.

7-slayd

3. **Мақсадга мувофиқ** амалга ошириладиган таълим – тарбия бу ҳар бир инсонни ёшлигидан “мудроқ лаёқатини” аниқлаб, қандай тўсқинлар бўлишига қарамасдан уни амалга оширишига интилишига айтилади. Масалан, машҳур грек ноғи Демосфенни ўз устида ишлашини айтиш мумкин.



- ✘ 1. Гўдаклик даври (туғилгандан 1 ёшгача бўлган давр)
- ✘ 2. Ясли даври (1-3 ёшлар)
- ✘ 3. Мактабгача тарбия ёши (3 – 7 ёшлар)
- ✘ 4. Мактаб ёшидаги кичик ўқувчилар (7 – 12 ёшлар)
- ✘ 5. ўрта мактаб ёшидаги ўқувчилар (12- 16 ёшлар)
- ✘ 6. Ўспиринлар (16 - 18 ёшлар)

- **4. ТАРБИЯ УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА**
- Тарбия усулларида ҳар томонлама шахсни шакллантириш мақсадида шахс онги, ҳис туйғулари, иродаси ва муносабатлар системасига таъсир кўрсатиш усулини тушуниш керак.
- Тарбия усулини тadbик этиш муайян ёшдаги шахс фаолиятига мос келса муваффақиятли бўлади. Тарбиянинг умумий усуллари асосан 4 гурппага бўлинади.
- 1. *Ижтимоий онгни шакллантириш усули.*
- 2. *Ўз – ўзини тарбиялаш усули.*
- 3. *Разбатлантириш усули.*

## 10-slayd

- ✗ **Ижтимоий онгни шакллантириш усуллари - талабаларнинг онгли, ҳис туйғуси ва иродасига ҳар томонлама таъсир кўрсатиш усулларини умуман шахс онгига таъсир кўрсатишни ўз ичига олади.**
- ✗ **Ижтимоий онгни шакллантириш усуллари тушунтириш, суҳбат ва ўртак кўрсатиш қисмлардан иборатдир.**

## 11-slayd

- ✗ **Педагогикада биз қуйидаги тарбия турларини санаб ўтишимиз мумкин:**
- ✗ **1.Ахлоқий тарбия.**
- ✗ **2.Ҳуқуқий тарбия.**
- ✗ **3.Экологик тарбия.**
- ✗ **4. Иқтисодий тарбия.**
- ✗ **5.Эстетик тарбия.**
- ✗ **6.Жисмоний тарбия.**
- ✗ **7.Меҳнат тарбияси.**



**Эксперт варағи №1**

- 1.Ақлий тарбия нима?
- 2.Ақлий тарбиянинг таълимий ва тарбиявий ахамиятини ёритинг.

**Эксперт варағи №2**

1. Эстетик тарбия нима?
- 2.Эстетик тарбиянинг таълимий ва тарбиявий ахамиятини ёритинг.

**Эксперт варағи №3**

- 1.Меҳнат тарбия нима?
2. Меҳнат тарбиянинг таълимий ва тарбиявий ахамиятини ёритинг.

**Эксперт варағи №4**

- 1.Хуқуқий тарбия нима?
2. Хуқуқий тарбиянинг таълимий ва тарбиявий ахамиятини ёритинг.

**Эксперт варағи №5**

- 1.Экологик тарбия нима?
2. Экологик тарбиянинг таълимий ва тарбиявий ахамиятини ёритинг.

**Эксперт варағи №6**

- 1.Иқтисодий тарбия нима?
2. Иқтисодий тарбиянинг таълимий ва тарбиявий ахамиятини ёритинг.

**Эксперт варағи №7**

- 1.Ахлоқий тарбия нима?
- 2.Ахлоқий тарбиянинг таълимий ва тарбиявий ахамиятини ёритинг.

**Эксперт варағи №8**

- 1.Жисмоний тарбия нима?
- 2.Жисмоний тарбиянинг таълимий ва тарбиявий ахамиятини ёритинг.

**Guruhlarda ishlashni baholash**

Guruh lar.	Javobning to'liqligi. (1,0)	Sxemalar da berilgan ligi(0,4)	Guruh ishtirok chisining faolligi(0,6)	Ballar.	Bahosi.
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					

## 8.2. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<b>Vaqt: 4 soat</b>	<b>Talabalar soni: 30</b>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	1 - individual topshiriqlarni bajarishga asoslangan amaliy mashg'ulot. 2- konferensiya amaliy mashg'uloti.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.Tarbiya jarayoni haqida tushuncha 2.Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. 3.Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar. 4.Tarbiya usullari haqida tushuncha. 5.Tarbiya turlari.
<i>Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarni mustaqil dokladlar tayyorlashga o'rgatish, mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta'minlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari.</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>• mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi;</li> <li>• o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi;</li> <li>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• tarbiya jarayoni haqida tushunchaga ta'rif beradi;</li> <li>• shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'tadi, o'zining erkin fikrini namoyon etadi;</li> <li>• shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlarga izoh beradi, yoritadi.</li> <li>• tarbiya turlari va uning ta'lim jarayonidagi o'rni o'rganadi</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	FSMU texnologiyasi, T – sxema texnologiyasi, amaliy ishlash usuli, baxs-munozara.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, format qog'ozlar, doska, bor.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va individual ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.



**Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi**  
**(1 – mashg'ulot)**

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I. Kirish bosqichi. (10 minut)	1.1. Amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Tinglaydilar. O'UM ga qaraydilar.
	1.2. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova).	Eshitadilar. O'UM ga qaraydilar.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	<p>2.1. Talabalarni faollashtirish maqsadida tezkor savol – javob o'tkaziladi. (2-ilova).</p> <p>2.2. Talabalarga individual ravishda «Tarbiyali shaxs deb kimni aytsa bo'ladi?» degan savolni T – sxema texnologiyasi asosida ishlab chiqishlari topshiriladi. (3-ilova).</p> <p>T – sxema texnologiyasi qoidasi bilan tanishtiriladi. (4-ilova).</p> <p>2.3. T – sxemani to'ldirish natijalarini tekshiradi, kamchiliklar bo'lsa to'ldiradi, tushuntiradi, aniqlik kiritadi.</p> <p>2.4. «FSMU» texnikasidan foydalanilgan holda «Shaxsni rivojlanishiga qanday omillar ta'sir etadi?» deb savol bilan murojaat qiladi (5-ilova).</p> <p>2.5. Har bir talaba topshiriqlarni format qog'ozlarga tushiradi, javoblar tekshiriladi, yagona xulosa chiqarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.</p>	<p>Faol qatnashadilar.</p> <p>T – sxemani to'ldiradilar, tayyor natijalarni tekshirish uchun pedagoga ko'rsatadilar.</p> <p>«FSMU» texnikasi asosida o'z javoblarini format qog'ozga yozadilar, pedagoga taqdim qiladilar.</p>
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: Keyingi seminar darsiga dokladchilarga mavzu beriladi.	Yozadilar.

**Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi**  
**(2– mashg'ulot)**

<i>Ish bosqichlari va mazmuni</i>	<i>faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
Tayyorgarlik bosqichi (5 minut)	Mavzularni doklad tayyorlash uchun talabalarga beriladi. 1.Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar. 2.Tarbiya usullari xaqida tushuncha. 3.Tarbiya turlari. Har bir dokladchiga bittadan taqrizchi, bittadan apponent tayinlanadi. Reglament ishlab chiqiladi.(6-ilova) Boshlovchi tayinlanadi.	Doklad uchun mavzu tanlaydilar. Ma'ruzaga tayinlanadilar.
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzular, ya'ni konferensiyada ko'rib chiqiladigan dokladlar nomi eslatiladi. 1.2. Dokladchilarni baholash mezonlari e'lon qilinadi. (7-ilova) 1.3. Reglament e'lon qilinadi.	Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Birinchi dokladchiga so'z beriladi. Doklad yuzasidan taqrizchiga, so'ng apponentga so'z beriladi. Boshlovchi tamonidan dokladchiga savollar berish taklif qilinadi. 2.2. Ikkinchi dokladchiga so'z beriladi. Doklad yuzasidan taqrizchiga, so'ng apponentga so'z beriladi. Boshlovchi tamonidan dokladchiga savollar berish taklif qilinadi. 2.3. Uchinchi dokladchiga so'z beriladi. Doklad yuzasidan taqrizchiga, so'ng apponentga so'z beriladi. Boshlovchi tamonidan dokladchiga savollar berish taklif qilinadi.	Tayyorlangan dokladlarni himoya qiladilar. Taqrizchilar, apponentlar o'z dokladchilariga doklad yuzasidan fikr bildiradilar.
III. Yakunlovchi bosqich (10 minut)	3.1.Konferensiya tarzida o'tgan amaliy mashg'ulotga yakun yasaydi. Dokladchilarni tayyorlagan ma'ruzalarini, munozara vaqtida faolligini baholaydi. O'quv mashg'ulotiga umumiy xulosa qiladi. 3.2.Mustaqil ta'lim uchun vazifa beradi: nazorat uchun savollarga og'zaki javob berish. (8-ilova)	Savollar beradilar.  Savollarni yozib oladilar.

**Talabalar faoliyatini baholash mezonlari**

86 – 100 %	2 ball	«a'lo»
71 – 85 %	1,7 ball	«yaxshi»
55 – 70 %	1,4 ball	«qoniqarli»

**Baholash mezonlari jadvali**

F.I.O.	Baho	Mezonlar			
		Bilim	faollik	Takliflar	Jami ball
	Ballar	0,8	0,6	0,6	2
	%	40	30	30	100

2-ilova

**«Блиц-сўров» саволлари**

1. Педагогика фани нимани ўрганади?
2. Педагогика фанининг вазифалари нималардан иборат?
3. Шарқ педагогикаси намоёндаларидан кимларни биласиз?
4. Тарбия нима?
5. Таълим нима?
6. Маълумот нима?
7. Таълим ва тарбия жараёнида мухим методларни куллашнинг ахамияти нимада деб уйлайсиз?
8. Таълим ва тарбиянинг бирлиги деганда нимани тушунасиз?

3- ilova

**«Т - sxema» texnikasi****T-sxema jadvali**

- bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mav-zularni o'rganishga qaratil-gan; bunda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan ijobiy va salbiy tomon-lari, afzallik va kamchiliklari, bir g'oyaning ikki tomoni, foyda va zararlari;

- tanqidiy, tahliliy, aniq mantiiqiy fikrlash muvaf-faqiyati rivojlantirishiga hamda o'z g'oyalari, fikrla-rini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi;  
- ma'ruza yakunida qo'llaniladi;

T-sxema qonun-qoidalari bilan tanishib chiqadi. Yakka tarkibda yoki juft-juft bo'lib T-sxemani to'ldiradi

O'z g'oyalarini yozma ravishda o'ng va chap taraflarida yozib chiqa-dilar. g'oyalar qarama-qarshi bo'lishi mumkin.

Sxemadagi g'oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to'ldirilishi mumkin.

Har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin.

Tarbiyali shaxs deb kimni aytish mumkin?	Aksincha-chi?

***Tarqatma materialning taxminiy nusxasi***  
***FSMU texnologiyasi***

- (F) – Fikringizni bayon eting.  
 (S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.  
 (M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.  
 (U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ушбу технология тингловчиларни ўз фикрини ҳимоя қилишга, эркин фикрлаш ва ўз фикрини бошқаларга ўтказишга, очиқ ҳолда баҳслашишга, эгалланган билимларни таҳлил қилишга, қай даражада эгаллаганликларини баҳолашга ҳамда тингловчиларни баҳслашиш маданиятига ўргатади.

Shaxsni rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

<b>F</b>	Fikringizni bayon eting.
<b>S</b>	Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.
<b>M</b>	Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
<b>U</b>	Fikringizni umumlashtiring.

**Doklidlarni himoya qilish reglamenti**

Бошловчига – 3-4 минут;  
 Докладчиларга -8 минутдан;  
 Такризчиларга – 3-минутдан  
 Аппонентларга – 3 минутдан;  
 Савол – жавоб, муҳокамага -10 минут

7-ilova.

<b>Baholash mezonlari. (ballarda)</b>	<b>Dokladchilar</b>			
1.Doklad tuzilishi (1,0) -dolzarbligi; -himoyadagi aniqlik; - xulosalarni aniq keltirilishi.				
2.Ma'lumotlarning yangiligi(0,5).				
3.Ma'lumotlarni yetkazish yo'llarini ishlab chiqilganligi (0,4).				
4.Reglamentga rioya qilishi (0,1)				
<b>Jami:</b>				

8-ilova.

**НАЗОРАТ УЧУН САВОЛЛАР.**

- 1.Тарбия жараёни нима?
- 2.Тарбия жараёнини мураккаблиги нимада?
- 3.Тарбия тамойиллари.
- 4.Тарбия усуллари турларини санаб беринг?
5. Шахс тушунчасига таъриф беринг?
6. Муҳит нима?
7. Ташқи муҳитнинг шахсга таъсири нималарда намоён бўлади?
8. Тарбия орқали инсонни тўлиқ ўзгартириш мумкинми?
- 9.Тафаккур, идрок, илмий дунёқараш деганда нимани тушунасиз?
- 10.Миллий қадриятларнинг аҳамияти ахлоқий тарбияда қай даражада намоён бўлади?
- 11.Ватанпарварлик нима?
- 12.Эстетик, жисмоний, меҳнат, иқтисодий, экологик тарбиявий вазифалар нима?

**9-MAVZU:**

**OILADA TARBIYA ASOSLARI.  
HOZIRGI ZAMON O'ZBEK OILALARIDAGI  
TARBIYANING XUSUSIYATLARI**

**9.1.Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi**

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 60 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	Ko'rgazmali ma'ruza.
Ma'ruza rejasi:	1.Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari. 2.Oila tarbiyasini takomillashtirish omillari. 3.O'zbek mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga oilada tarbiya berish jarayoni, hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari haqida tushuncha berish, ularda bilim, malaka, ko'nikma shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari haqida umumiy tushuncha berish;</li> <li>• Oila tarbiyasini takomillashtirish omillari bilan tanishtirish;</li> <li>• O'zbek mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari mazmunini yoritish.</li> </ul>	O'quv natijalari: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlarini tushuntiradi;</li> <li>• Oila tarbiyasini takomillashtirish omillarini sanab o'tadi;</li> <li>• O'zbek mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari mohiyatini tushuntiradi.</li> </ul>
Ta'lim metodlari:	vizual ma'ruza, namoyish etish, suhbat, tushuntirish, blis-so'rov usullari
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, marker, doska, kodoskop, skotch slaydlar, tarqatma materiallar, qog'ozlar.
Ta'lim shakli:	Frontal, jamoaviy.
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Test, nazorat savollari.

### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari</i>	<i>O'qituvchi faoliyatining mazmuni</i>	<i>Talaba faoliyatining mazmuni</i>
1 bosqich Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	1.2. Mavzu nomini yozib oladilar
	1.2. Blis-so'rov usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. Blis-so'rov natijasiga ko'ra talabalarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining diagnostikasini amalga oshiradi. (1 ilova) Diagnostika natijasi bo'yicha paradokslar usuli asosida ma'ruzasida qarama-qarshilik vaziyatini yuzaga chiqaradi. (2 ilova)	1.2. Savollarga javob beradilar
	1.3. Paradokslar usulini qo'llash qoidalari bilan talablarni tanishtiradi. (3 ilova)	Qoidalari bilan tanishadilar.
2 bosqich Asosiy bo'lim (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi. (4 ilova)	Mavzu reja-sini yozib oladilar, tinglaydilar.
	2.2. Ma'ruza rejasining 1-4 punktlari bo'yicha tushuntiradi, har bir punkt nihoyasida umumlashtirib boradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boradi. (5 ilova) Bugungi kundagi oilada yuzaga kelayotgan muammolarga oid misollar keltiradi.	Tinglaydilar. Tarqatma materiallar to'plamida keltirilmagan qirralarini konspekt qilib boradilar.
	2.3. Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi.	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. Barcha axborotni tizimlashtiradilar.
3 bosqich Yakunlovchi bo'lim (5 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollar beradilar.
	3.2. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi.	Topshiriqlarni yozib oladilar.
	3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi	Yozadilar.
	3.4. Keyingi mavzu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi (tayanch ibora va tushunchalar)	Yozadilar.

**Blis-so'rov savollari**

<i>№</i>	<i>Savol</i>	<i>Javob</i>
1.	Tarbiyaga ta'rif keltiring?	
2.	Tarbiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'ting.	
3.	Tarbiya jarayonida oilaning roli qanday?	
4.	Oilada farzandlar tarbiyasiga otaning roli qanday bo'lishi kerak?	
5.	Sharq mutafakkirlari ijodida oilaviy tarbiya qanday o'rin olgan?	

2-ilova

**ПАРАДОКСЛАР УСУЛИ**

Ўқитувчи саволлар тизимини кетма-кет бериб талабаларнинг фикрларини ўрганеди

Диагностика натижаларига кўра маърузани олиб бориш жараёнида талабаларнинг қарама-қаршиликка (тушунчалардаги, билимлардаги) келишларини таъминлайди. Бундай вазият асосан талабанинг тушунчаларидаги адашишлар ва хатоликлар билан боғлиқ. Демак, бу муаммовий вазият талабаларнинг олдинги фикр, тушунчалари ва хулосаларига қарама - қарши, парадоксал бўлган вазиятдир.

Талабалар муаммовий вазиятни юзага келтирган амаллардаги хатоликни излайдилар (лекин амалларда хўтолик йўқ)

Ижодий фикрлай оладиган талаба амалларнинг бажарилиши жараёни эмас, балки мазкур амалнинг ўзи хато эканлигини аниқлай олади (бундай талаба топилмаса ўқитувчининг ўзи буни ошкор қилишига тўғри келади).



## АМАЛЛИ (ПРОЦЕДУРАВИЙ) ХАТОЛИК – НОТЎҒРИ АМАЛНИ ТЎҒРИ БАЖАРИЛИШДИР.

3-ilova

### Парадокслар усулини қўллаш қоидалари

→ Талабалар билимларини фаоллаштириб олиш зарур.

→ Талабалар парадокс объекти сифатида олинаётган жараён ҳақида ўз фикрларини (қайсики хато бўлган) тўғри деган хулосага келган бўлишлари керак.

→ Талабалар муаммовий вазиятга ўзлари дуч келишлари керак ва тўғри деб билган нарсаларининг хато бўлиб чиққанидан тушунмовчиликда қолишлари (ҳайрон бўлишлари) керак. Бу ўта муҳим, чунки айнан шу сабаб улар фаол фикрлай бошлайдилар, хатоликни топишга ҳаракат қиладилар.

→ Парадоксни, қарама-қаршиликни қандайдир бир қийинчиликлар билан адаштирмаслик лозим.

→ Парадокслар усули – бу аввалдан билганлари билан янги билимлар ўртасидаги кўприқдир. Шу тарзда янги билимнинг аввалдан маълум билим билан ўзаро боғланиши ва бу *жараёни ҳис қилишга* талабани «мажбур» қилиниши уни хотирада мустаҳкамланиб қолишига ёрдам беради.

**Mashg'ulot rejasi:**

- 1.Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari.
- 2.Oila tarbiyasini takomillashtirish omillari.
- 3.O'zbek mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari.

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

Oila, trbiya, ota-onalar, farzanlik burchi, jamiyat,kattalarga xurmat, xatoliklar,milliy an'analar, «Oila markazi» vazifalari.

**O'quv vizual materiallar**  
**Madaniyatga berilgan ta'riflar**

Мустақиллик йилларида оила ва никоҳ муносабатларини мустаҳкамлашнинг аҳамиятига алоҳида урғу берган юртбошимиз И.А.Каримов ўзининг **«Юксак маънавият - енгилмас куч»** китобларида *«... оила институтини жамиятнинг бошқа муҳим ижтимоий тузилмалари, юртимиздаги маънавий ўзгаришлар билан уйғун тарзда риожлантириши, унинг нуфузини ошириши масаласига давлат сиёсатининг энг муҳим ва устувор йуналиши сифатида доимий эътибор бериб келмоқдамиз»,* - деб таъкидладилар.

Оила жамиятнинг бир бўлаги. Шундай, экан инсон шахсини шакллантириш оиладан бошланади. Оила мураккаб ижтимоий гуруҳ бўлиб, биологик ижтимоий, ахлокий, мафкуравий ва рухий муносабатларнинг бирлшуви натижасида вужудга келади. Оила тор маиший тушунча эмас, балки у ижтимоий жамоадир. Шу сабабли оилалар бирлашиб жамиятни ташкил қилади.

Оила ва никоҳ борасидаги ижобий тенденциялардан бири - бу йигит ва қизларнинг никоҳга кириш ёшидаги ўзгаришлардир. Охириги йилларда ўтказилган тадқиқотларимиздан маълум бўлишича, биринчи марта никоҳга кирган йигитларнинг ўртача ёши 24,3 ва қизларники 21,5 ёшни ташкил этмоқда. Зеро, агар эслайдиган бўлсак, 90-йилларнинг бошида никоҳнинг ёшариши башорат қилинган эди. Хусусан, 1991 йилда никоҳга кирган жами қизларнинг 8,6 фоизи 18 ёшга тўлмаган эди.

Мустақиллик йилларида никоҳга кирган йигитларнинг ёш гуруҳларида ҳам ўзгаришлар рўй берди. Хусусан, 20-24 ёш гуруҳида никоҳга кирган йигитлар салмоғи **15,6** фоизга қисқарди. 25-29 ёш гуруҳидагиларда эса у деярли 2 маротабага ортди. Шунингдек, 30 ва ундан катта ёшда оила қурган йигитлар салмоғи ҳам йил сайин ошмоқда. Шунга қарамай, яна бир муаммо ҳамон бор - бу айрим қизларнинг эрта никоҳга киришлари. Чунки ажрим бўлган ҳолатларнинг аксариятида келин жуда эрта турмуш қурганлиги факти тасдиқланмоқда.

## 10.1. Маърузани олиб бориш технологияси

<b><i>O'quv soati: 2 soat</i></b>	<b><i>Talabalar soni: 60 ta</i></b>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.O'zbek xalq pedagogikasi pedagogikasi haqida tushuncha. 2.Xalq pedagogikasida tarbiya usullari. 3.Milliy qadriyatlar va o'zbek xalq pedagogikasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> O'zbek xalq pedagogikasidan namunalar bo'yicha talabalarda tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalari:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• folklor va o'zbek xalq pedagogikasini bayon etadi;</li> <li>• tez aytishlar va uning ta'lim-tarbiyada tutgan o'rnini ochib beradi;</li> <li>• tez aytishlarning inson xotirasini shakllanishidagi o'rnini sanab beradi;</li> <li>• topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o'rnini ko'rsatib beradi;</li> <li>• qo'shiqlar va ularning tarbiyadagi ahamiyatini tahlil qiladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• talabalar o'zbek xalq pedagogikasi va uning turlarini sanab beradi;</li> <li>• tez aytishlar va uning ta'lim-tarbiyada tutgan o'rniga izoh beradi;</li> <li>• topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o'rnini sanab beradi;</li> <li>• qo'shiqlarning tarbiyadagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari</i>	Ma'ruza, muhokama, zigzag.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, marker, skotch, doska.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa, frontal, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	<i>Kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya</i>
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat

## Ma'ruza mashgulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari</i>	<i>O'qituvchi faoliyatining mazmuni</i>	<i>Talaba faoliyatining mazmuni</i>
1. Kirish bosqich (15daqiqqa)	1.1. Mavzuning maqsadi va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarni e'lon qiladi. 1.2. Ma'ruzani hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan (zigzag) foydalangan holda tashkil etilishini e'lon qiladi. 1.3. Guruhlarda ishlash tartib-qoidalarini bilan tanishtiradi ( 1-ilova).	Eshitadilar va kerakli ma'lu-motlarni yozib oladilar. Yozadilar. Tinglaydilar
2. Asosiy bosqich (55 daqiqqa)	2.1. Talabalarni to'rtta kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruhga ma'ruzaning biror savoliga tegishli bo'lgan ma'ruza matnlari tarqatiladi va savolni yakka tartibda o'rganishni talab etadi. So'ngra yangi guruhlar tashkil etib o'rganilgan savolni birgalikda tahlil qilishni uyushtiradi.	Guruhlariga bo'linadilar. Matnni o'rganib chiqadilar va muhokama qiladilar.
	Muhokama tugagach har bir savol bo'yicha tayinlangan ekspertlar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytib kelishini va o'rgangan savollarni birlamchi guruh a'zolariga yetkazishni tashkil etadi.	Tushuntiradilar va tinglaydilar.
	2.2 Guruhlararo savol-javob tashkil etadi. Baho guruhga qo'yiladi. Baholash mezonlari doskaga osib qo'yiladi (2-ilova). Barcha javoblarni umumlashtirib xulosa qiladi. Tez aytishlardan misollar keltiradi va uni talabalar bilan birgalikda tahlil qiladi (3-ilova).	Mavzu bo'yicha savollar tayyorlaydi, savollarga javob beradi.  Muhokamada ishtirok etadilar.
3. Yakunlovchi bosqich (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni bayon etadi.	Talabalar o'z fikrlarini bayon qiladilar.
	3.2. Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini va guruhlar faoliyatini baholaydi.	Eshitadilar.
	3.3. Mustaqil ish uchun o'quv topshiriqlarini talabalar diqqatiga havola etadi ( 4-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladilar


### Guruhda ishlash qoidalari, zigzag texnikasi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi quyidagi tamoyilga asoslanadi:

- talabalar kichik guruhlariga ajratiladi;
- guruhning har bir a'zosi mavzuning biror qismi bo'yicha ekspertga aylanadi;
- o'zi o'rgangan masalani guruhning boshqa a'zolariga tushuntiradi;
- har bir guruh a'zosi tushuntiradi va eshitadi shu yo'sinda mavzuni to'liq egallaydi.

«Zigzag» texnikasini tashkil etish jarayonining sxematik ko'rinishi.

### «Zigzag» texnikasini tashkil etish jarayonining sxematik ko'rinishi



### Talabalarning javoblarini baholash mezonlari

- 1.Savolni to'g'ri tuzish - 0.1 ball.
  - 2.Savolga to'liq javob - 0.2 ball.
  - 3.Qo'shimchalar uchun - 0.2 ball.
- Jami: 0.5 ball.

### Ko'rgazmali materiallar

Ўзбек халқ педагогикаси миллий тарбияни амалга ошириш усул ва воситалари, ёшларни дастлабки оилавий одоб қоидаларига одатлантириш ва уни амалга ошириш йўллари, ёшларни дастлабки оилавий дастёрлик меҳнатига одатлантириш, уни амалга оширишда фойдаланиладиган усул ва воситаларни ўз ичига қамраб олади.

Халқ педагогикаси деганда халқ оғзаки ижодиётининг барча жанрларида акс эттирилган тарбия борасидаги қарашлар, ғоя, урф-одатлар, расм-русумлар ҳамда анъаналар йиғиндиси тушунилади. Демак, булардан кўринадики, халқ педагогикасининг асосий манбаи фольклор ҳисобланади.

Фольклор халқ педагогикасини, яъни халқ оммасининг - тарбия борасидаги қарашлар, ғоя, урф-одатлари, анъаналар йиғиндисидан иборатдир. Булардан ташқари фольклор тарбияни амалга оширишда қўлланилиб келган усул, восита, кўникма ва малакалар йиғиндисини ҳам ифодалайди.

Тез айтишлар ўзбек халқ оғзаки ижодининг бир жанри ҳисобланади. Унда муайян товушлар, айниқса жарангли ундошлар такрорланади, сўзлар ритм, урғулар билан айтилади. Тез айтишда ҳар бир товуш ўз ўрнида тўғри ва раво талаффуз этилиши керак. Тез айтишлар болаларнинг фикрлаш қобилиятини, нутқи ва сўз бойлигини ўстиради.

“Эшик олдида булок, булокдан сув ичар улоқ, узун кулоқ”, “Тўп-тўп кўк копток, ҳар тўп кўк коптокда биттадан катта копток”, “Ғани ғилдиракни ғизиллатиб ғилдиратди”, “Олим Олимадан олма олдим, Олима Олимдан олма олдим?”

### **Мустақил таълим учун ўқув топшириқлари**

1. Ўзбек халқ педагогикаси намуналари билан танишиб чиқиш.
2. Фольклор жанрига оид китобларни ўқиш.
3. Тез айтишлардан топиб, ўқув дафтарига ёзиш.

### 10.1. Amaliy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi

<i>Dars vaqti - 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 30 ta</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Folklor va o'zbek xalq pedagogikasi. 2. Tez aytishlar va ularning tarbiyadagi o'rni. 3. Topishmoqlar va maqollarni tarbiyadagi o'rni. 4. Qo'shiqlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Mavzu bo'yicha talabalar bilimlarini chuqur o'zlashtirishini ta'minlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzu yuzasidan fikr yuritishga nisbatan talabalarda motivasiya uyg'otadi;</li> <li>• mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi;</li> <li>• folklor va tez aytishlarning tarbiyada tutgan o'rnini o'rganishiga ko'mak beradi;</li> <li>• o'zbek xalq pedagogikasi janrlari normalariga amal qilgan holda o'z fikrini bayon etish faoliyatini tashkil qiladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzu bo'yicha o'zining mustaqil fikrini bildiradi;</li> <li>• tez aytishlardan namunalar keltiradilar va tahlil qiladilar;</li> <li>• o'tilgan mavzu bo'yicha fikrini mustaqil bayon etadilar;</li> <li>• tez aytishlarni sanab beradilar;</li> <li>• o'zbek xalq pedagogikasi janrlari bo'yicha o'z fikrlarini bayon eta oladilar.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Cuhat, muhokama, kichik guruhlarda faoliyat bajarish, taqdimot
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv materiallari, tarqatma materiallar, <i>qog'oz-A 32, doska, marker, skotch.</i>
<i>O'qitish shakllari</i>	Yakka, jamoa, guruhda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	<i>Og'zaki so'rov, savol-javob. blis-so'rov.</i>



### Amaliy mashg'ulotning texnologik jaritasi

<i>Ish bosqich-lari</i>	<i>O'qituvchi faoliyatining mazmuni</i>	<i>Talaba faoliyatining Mazmuni</i>
1.Kirish bosqichi. (10 daqiqa)	1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar
	1.2. Darsni tashkil etish usulini e'lon qiladi ( hamkorlik texnologiyasi).	Yozib oladilar
2.Asosiy bosqich (60 daqiqa)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha blis-so'rov o'tkazadi.</p> <p>1. O'zbek xalq pedagogikasiga nimalar kiradi? 2. Folklorning qanday turlarini bilasiz? 3. Tez aytishlarga misollar keltiring? Javoblarni tahlil qiladi va xulosalaydi.</p> <p>2.2.Talabalarni to'rt guruhga bo'ladi. Jadvalni to'ldirish yo'li bilan – folklor janriga tavsif berish va taqdimotga tayyorlanish lozim ekanligini e'lon qiladi.( 1-ilova). Baholash mezonlarini doskaga ilib qo'yadi. (2-ilova ). Talabalarning faoliyatni kuzatib boradi. Taqdimotni e'lon qiladi. O'zaro baholash jarayonini tashkil etadi va g'olib guruhni aniqlaydi.</p> <p>2.3. Guruhlar yangi vazifani - ijodiy ish bajarishni taklif etadi. Har bir guruh folklor janri asosida hikoya tayyorlashi lozim ekanligini tushuntiradi. Baholash mezonlarini doskaga ilib qo'yadi (3-ilova) Taqdimotni e'lon qiladi. O'zaro baholashni uyushtiradi. Bajarilgan ijodiy ishga nisbatan o'z munosabatini bildiradi va xulosalaydi.</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Javob beradilar.</p> <p>Guruhlarga bo'linadilar va hamkorlikda faoliyat ko'rsatadilar.</p> <p>Taqdimot qiladilar va boshqa guruhlarning ishini baholaydilar. Tinglaydilar.topshiriqni bajaradilar.</p> <p>Taqdimot qiladilar va o'zaro baholashda ishtirok etadilar.</p>
3. Yakunlovchi bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.	Savollar beradilar.
	3.2.O'z-o'zini nazorat va mustahkamlash uchun savollar beradi. (6 ilova)	Savollarga javob beradilar.
	3.3.Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	
	3.4. Keyingi ma'ruzaning mavzusi va rejasini e'lon qiladi.	O'UMga qarang.

1-ilova

#### Topshiriq

- 1.Jadvalni har bir ustunini to'ldiring.
- 2.O'zbek xalq pedagogikasi janrlarini bayon eting.
3. Javobingizni sxemalar bilan to'ldiring.

### Kengaytirilgan tavsif jadval

Tushuncha	Turlari	Tarkibiy qismlari	Ahamiyati	Rivojlanish qonuniyatlari
O'zbek xalq pedagogikasi janrlari				

2-ilova

### Taqdimotni baholash mezonlari

Guruh	Javobning to'liqligi	O'zbek xalq pedagogikasi normalariga mosligi	Ko'rgazmaliligi	Jami ballar
1				
2				
3				
4				

1.Javobning to'liqligi-1 dan- 2 ballgacha.

2.Adabiy til normalariga amal qilinganlik darajasi – 1 dan – 2 ballgacha.

3.Ko'rgazmalilik – 1-dan- 2 ballgacha.

Maksimal ball : 6 ball.

3-ilova

### Topshiriq

Har bir guruhdan ixtiyoriy ravishda mavzuni tanlab, ana shu mavzuga folklor yozish vazifasi beriladi. Folklor xalq og'zaki ijodi namunalariga amal qilingan holda yozilishi talab etiladi. Taqdimotni o'zaro baholash orqali olib borilishi ta'kidlanadi.

### Baholash mezonlari jadvali

Har bir kategoriya uchun 4 balldan berish mumkin

Guruh	Adabiy til normalariga amal qilinganligi	Folklorning jozibadorligi	Mantiqiy bog'lanishlar va izchillik	Jami ballar
1				
2				
3				
4				

12 ball – «5» baho

9 ball- «4» baho

6 ball- «3 baho».

4-ilova

### Uyga topshiriq

Mavzu: O'zbek xalq pedagogikasidan namunalar.

Reja:

1. Topishmoqlar va maqollarning tarbiyadagi o'rni.

2. Qo'shiqlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

Mavzu rejalari asosida ma'ruza matni va o'quv qo'llanmadan foydalangan holda tayyorlanib keling ( insert jadvalini to'ldiring).

## 11.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

<b>Vaqt- 4 soat.</b>	<b>Talabalar soni: 60</b>
<i>Dars shakli</i>	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xalq og'zaki ijodiyotida ta'lim va tarbiya.</li> <li>2. Islom dinida barkamollik g'oyasi.</li> <li>3. Zardushtiylik dini haqida.</li> <li>4. «Avesto»ning yaratilishi.</li> <li>5. «Qur'oni Karim»da ifodalangan tarbiyaviy g'oyalari.</li> <li>6. Payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom inson tarbiyasi haqida.</li> </ol>
<i>Ukuv mashg'ulotining maqsadi:</i> VII-IX asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogikaning yaratilishi tarixi haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• xalq og'zaki ijodida ta'lim-tarbiya masa-lalarini ifoda etilishini bayon etadi;</li> <li>• zardushtiylik dini va «Avesto» ning yaratilishi bo'yicha tushuncha beradi;</li> <li>• Qur'oni Karimda ifodalangan tarbiyaviy g'oyalardan misollar kelti-radi;</li> <li>• Payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom inson tarbiyasi haqida bildirgan fikrlari mohiyatini ochib beradi.</li> </ul>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• xalq og'zaki ijodi turlarini sanab beradi va izoh beradi;</li> <li>• «Avesto» asarini tahlil qiladi;</li> <li>• Qur'oni Karimda ifodalangan tarbiyaviy g'oyalarni mustaqil tarzda o'qiydi.;</li> <li>• Payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom inson tarbiyasi haqida bildirgan fikrlari mohiyatini tahlil qiladi va izoh beradi.</li> </ul>
<i>Ukitish usullari</i>	Ma'ruza, muhokama, zigzag.
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, qog'oz, marker, skotch, doska
<i>O'qitishning shakli</i>	Jamoa , kichik guruhlar.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xona.
<i>Monitoring va baxolash</i>	Og'zaki javob, topshiriq.

## Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi


<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>talabag</i>
1. Kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1 Mavzuning maqsadi va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarni e'lon qiladi. 1.2.Ma'ruzani hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan (zigzag) foydalangan holda tashkil etilishini e'lon qiladi. 1.3. Guruhlarda ishlash tartib–qoidalari bilan tanishtiradi (1-ilova).	Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar.
2. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1.Talabalarni to'rtta kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruhga ma'ruzaning biror savoliga tegishli bo'lgan ma'ruza matnlar tarqatiladi va savolni yakka tartibda o'rganishni talab etadi So'ngra yangi guruhlar tashkil etib o'rganilgan savolni birgalikda tahlil qilishni uyushtiradi. Muhokama tugagach, har bir savol bo'yicha tayinlangan ekspertlar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytib kelishini va o'rgangan savollarni birlamchi guruh a'zolariga yetkazishni tashkil etadi. 2.2. Guruhlararo savol–javob tashkil etadi. Baho guruhga qo'yiladi. Baholash mezonlari doskaga osib qo'yiladi (2-ilova). Barcha javoblarni umulashtirib xulosa qiladi. «Avesto» asaridan va Qur'oni Karimdan parcha keltiradi va uni talabalar bilan birgalikda tahlil qiladi (3-ilova).	Guruhlariga bo'linadilar. Matnni o'rga-nib chiqadilar va muhokama qiladi-lar. Tushuntiradilar va tinglaydilar.  Mavzu bo'yicha savollar tayyorlaydi, savollarga javob beradi.  Muhokamada ishtirok etadilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa.)	3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni bayon etadi. 3.2.Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini va guruhlar faoliyatini baholaydi. 3.3.Mustaqil ish uchun o'quv topshiriqlarini talabalar diqqatiga havola etadi ( 4-ilova).	Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.  O'UM ga murojaat etadi.

### Guruhda ishlash qoidalari, zigzag texnikasi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi quyidagi tamoyilga asoslanadi:

- talabalar kichik guruhlariga ajratiladi;
  - guruhning har bir a'zosi mavzuning biror qismi bo'yicha ekspertga aylanadi;
  - o'zi o'rgangan masalani guruhning boshqa a'zolariga tushuntiradi;
  - har bir guruh a'zosi tushuntiradi va eshitadi shu yo'sinda mavzuni to'liq egallaydi.
- «Zigzag» texnikasini tashkil etish jarayonining sxematik ko'rinishi.

### «Zigzag» texnikasini tashkil etish jarayonining sxematik ko'rinishi



2-ilova

### Talabalarining javoblarini baholash mezonlari.

- 1.Savolni to'g'ri tuzish- 0.1 ball.
  - 2.Savolga to'liq javob -0.2 ball.
  - 3.Qo'shimchalar uchun- 0.2 ball.
- Jami: 0.5 ball.

## Ko'rgazmali materiallar

1-slayd

«Авесто» зардуштийлик дининг муқаддас китоби бўлиб, унинг илк саҳифалари Зардушт томонидан 548-529 йиллар орасида Амударё соҳилларида яратилган. Кейинчалик Жанубий Эронда оташпарастлик дининг уламо-қоҳинлари томонидан тўлдирилиб, такомиллаштирилган. Бу китоб 12 минг хўкиз терисига битилган.

2-slayd

«Қуръон»да инсонда имоннинг ўзига хос мезони саналган саҳоват, меҳмоннавозлик, жасорат, сабр ва қаноат, тўғрилик, вафодорлик ва содиқлика катта эътибор берилган.

«Қуръон»да инсонни ахлоқий камолга етказишда яхши кишилар билан ҳамсуҳбат бўлиш ҳам ката аҳамиятга эга деб кўрсатилади. Бу ҳаётда яхшилар билан дўст бўлишда ката ёрдам беради, дўст-душманни ажратиб, ўзига ҳамкор дўст танлашда мадад беради.

«Ва-н-жам» сурасининг 24-оятида «Бизнинг зикримиздан қочган ва фақат ҳаёти – дунёнигина истаган кимсалардан юз ўтиринг», дейилган.

3-ilova

### Mustaqil ta'lim uchun o'quv topshiriqlari.

1. «Қуръони Карим»да ифодаланган тарбиявий ғоялардан топиб ёзиб келиш.
2. «Авесто» асарини мустақил тарзда ўқиш.

## 11.2. Amaliy mashg'ulot darsini tashkil etish texnologiyasi

<b>Vaqt – 2 soat.</b>	<b>Talabalar soni: 30 ta</b>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	Konferensiyaga asoslangan amaliyot darsi.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xalq og'zaki ijodiyotida ta'lim va tarbiya.</li> <li>2. Islom dinida barkamollik g'oyasi.</li> <li>3. Zardushtiylik dini haqida.</li> <li>4. «Avesto»ning yaratilishi.</li> <li>5. «Qur'oni Karim»da ifodalangan tarbiyaviy g'oyalar.</li> <li>6. Payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom inson tarbiyasi haqida.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Xalq og'zaki ijodiyotida ta'lim va tarbiya haqidagi bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogning vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• talabalarda mavzuni chuqur o'rganish ehtiyojini uyg'otadi;</li> <li>• mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydi va chuqurlashtiradi;</li> <li>• «Qur'on»dan sura-larni tahlil qilish malakasini shakl-lantiradi.</li> </ul>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• xalq og'zaki ijodi janrlarini sanab beradi va izoh beradi;</li> <li>• Zardushtiylik ta'limotini tahlil qiladi;</li> <li>• «Qur'on» suralaridan namunalar keltiradi va uning mazmunini misollar asosida tahlil qiladi.</li> </ul>
<i>Usul va texnikalar</i>	Suxbat, tushuntirish, munozara
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza tezisleri, kompyuter texnologiyalari, slaydlar
<i>O'qitishning shakli</i>	Jamoa va yakka holda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoilari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat savollari

### Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talabalar</i>
Tayyorgarlik bosqichi.	Talabalar tayyorlab kelgan referatlar bilan tanishadi; Referat yuzasidan savollar tug'ilgan holda ularga talabdan javob berishini so'raydi.	Seminar darsiga tayyorlanadi ma'ruzachilarga savollar beradilar.
<b>Ma'ruza rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. XVII-XVIII asrlarda XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, fan va madaniyat.</li> <li>2. Nodira she'rlarida barkamol insonni ulug'lanishi.</li> <li>3. Ogahiyning pedagogik qarashlari.</li> <li>4. Jahon Otin – Uvaysiyning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi.</li> <li>5. Munis Xorazmiy she'rlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarining ulug'lanishi.</li> <li>6. Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.</li> </ol>
<b>Dars maqsadi:</b>	XVII-XVIII asrlarda XIX asrning birinchi yarmida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar haqidagi bilim-larni shakllantirish.
<b>Pedagog vazifalari:</b>	<b>O'quv natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• XVII-XVIII asr-larda XIX asrning birinchi yarmida ta'lim-tarbiya masalalarini yoritib beradi;</li> <li>• Nodira va Ogahiyning pedagogik qarashlarini bayon etadi;</li> <li>• Uvaysiyning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasini ochib beradi;</li> <li>• Xorazmiy va Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini yoritib beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• davr haqida ma'lumot beradi;</li> <li>• Nodira va Ogahiyning pedagogik qarashlariga tavsif beradi;</li> <li>• Uvaysiyning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasini tahlil qiladi;</li> <li>• Xorazmiy va Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini sanab beradi va izoh beradi.</li> </ul>
<b>Usullar va texnikalar</b>	Ma'ruza, suxbat, muhokama, kop-kop, taqdimot
<b>O'qitish vositalari</b>	Tarqatma materiallar, qog'oz, marker, skotch, doska. Eslatma va qoidalar.
<b>O'qitishning shakli</b>	Jamoa, kichik guruhlar.
<b>O'qitish shart-sharoilari</b>	Kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xona.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki javob, taqdimot.

## Ma'ruza darsining texnologik kartasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	<i>Talabaning</i>
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1.Darsning mavzusini, maqsadini va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi 1.2.Mavzu bo'yicha tayyorlab kelingan ishlanmalarni ko'zdan kechiradi. 1.3.Darsning tashkil etish ketma-ketligi va baholash me'zonlari, guruhda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (1-ilova).	Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar.  1.2. Tinglaydi-lar, savol beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalarni hamkorlikda ishlash texnologiyalaridan biri «kop-kop» usulida ishlash ketma-ketligi bilan tanishtiradi. (2-ilova). Talabalarni to'rtta kichik guruhlariga ajratadi. Bir guruhni ekspert guruhi qilib tayyorlaydi va vazifalarini tushuntiradi. 2.2. Qolgan uch guruhga ma'ruzaning biror savoliga tegishli bo'lgan ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalar tarqatiladi. Savollarni avval yakka tartibda o'rganilishini so'ngra guruh ichida savol muhokama qilinib, guruh o'ziga berilgan savol yuzasidan taqdimot tayyorlanilashi lozim ekanligini e'lon qiladi. Taqdimot e'lon qilinadi. Yo'naltiruvchi savollar berib boradi. Baholash mezonlari doskaga osib qo'yiladi (3-ilova).  Barcha savollar muhokama qilib bo'lingandan keyin mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.	2.1.Tinglaydilar  Gruhlarga bo'linadi.  Ekspert guruhi vazifani yozib oladi. 2.2.Savollarni o'rganadi va munozara asosida savolni tahlil etadilar. Taqdimotga tayyorgarlik ko'radilar.  Taqdimot qila-dilar, savollarga javob beradilar. Ekspert guruhi baholaydi.
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Mavzuning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratadi. 3.2. O'tkazilgan darsga umumiy baho beradi. 3.3.Mustaqil ta'limga tegishli topshiriqlarni aytadi (4-ilova).	3.1.Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar. O'MK ga murojat etadi


### Гуруҳ бўлиб ишлаш қондаси:

1. Гуруҳнинг ҳар бир аъзосини баён этаётган фикрини сабр-тоқат билан эшитиш.
2. Гуруҳнинг ҳар бир аъзоси масулиятни ҳис этган ҳолда фаолият кўрсатиши шарт.
3. Ўзаро фикр алмашиши ва кўмаклашиши зарур.
4. Гуруҳ фаолиятини баҳолашда иштирок этиши талаб этилади.
5. Жамоа бўлиб ишлашга ўрганиши талаб этилади.

### Hamkorlikda o'qitishning «Koop-koop» usuli

#### Таъриф

Ҳамкорликда ўқитиш педагогик усуллардан бири бўлиб, талабаларнинг мустақил билимларни эгаллаши, фикр юритиши ва муҳокама қилишига асос бўлади. Ҳар бир гуруҳ бирор савол юзасидан эксперт бўлиб майдонга чиқади ва ўзи эгаллаган билимларни ўртоқларига етказиб беришдек вазифани бажаради.



### Muhokama uchun savollar

#### Rejaning birinchi punkti bo'yicha

1. XVII-XVIII asrlarda XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, fan va madaniyat.
2. Nodira she'rlarida barkamol insonni ulug'lanishi.
3. Nodira she'rlaridan misollar keltiring.

#### Rejaning ikkinchi punkti bo'yicha

1. Ogahiyning pedagogik qarashlari.
2. Jahon Otin – Uvaysiyning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi.
3. Ogahiy va Uvaysiyning pedagogik qarashlaridan misollar keltiring.

### **Rejaning uchinchi punkti bo'yicha**

1. Munis Xorazmiy she'rlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarning ulug'lanishi.
2. Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
3. Xorazmiy va Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan misollar keltiring.

3-ilova (2)

#### **Baholash mezonlari**

Guruhlar	Mavzuni to'liq bayon etish (0.2 ball)	Aniq ,lo'nda va to'g'ri talaffuz qilish (0.1.ball)	Ko'rgazmalilik (0.2 ball)	Jami Ball
1				
2				
3				

#### **O'rtacha umumiy ballar**

Guruhlar	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1	-		
2		-	
3			-
Umumiy ballarning yig'indisi			
Yig'ilgan ballarni 3 ga bo'lingan miqdori.			

1-o'rin q 4 ball- a'lo.

2-o'rin q3 ball – yaxshi.

3- o'rin q 2 ball –o'rta.

4-ilova

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar**

XVII-XVIII asrlarda XIX asrning birinchi yarmida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlardan misollar topib yozib keling.


## 14.2. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Dars vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 30 ta</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. XVII-XVIII asrlarda XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, fan va madaniyat.</li> <li>2. Nodira she'rlarida barkamol insonning ulug'lanishi.</li> <li>3. Ogahiyning pedagogik qarashlari.</li> <li>4. Jahon Otin – Uvaysiyning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi.</li> <li>5. Munis Xorazmiy she'rlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarning ulug'lanishi.</li> <li>6 Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>• mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi;</li> <li>• o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi;</li> <li>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• mavzuni yoritib bera oladi;</li> <li>• o'zbek shoiralari ijodini tahlil qiladi va izoh beradi;</li> <li>• ma'rifatparvarlik g'oyalarini tahlil qiladi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar-amaliy ishlash uchun, «Koop-koop» texnikasi, esse, «Nima uchun» organayzeri., «hamkorlikda o'qiyamiz», blis-so'rov.
<i>O'qitish vositalari</i>	<i>Ma'ruzalar matni, markerlarqog'ozlar, doska, bo'r.,</i>
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruh bilan ishlash
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	<i>Guruhlar bilan ishlash uchun texnik jihozlangan auditoriya.</i>
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat, reyting tizimi asosida baholash.

### Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

<i>Ish bosqich-lari</i>	<i>O'qituvchi faoliyatining mazmuni</i>	<i>Talaba faoliyatining mazmuni</i>
1 bosqich  Mavzuga kirish  (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida guruhda ish olib borishni aytib o'tadi.	Eshitadilar, yozadilar..
	1.2.Mavzuga doir kalitli tushunchalar bo'yicha blis-so'rov o'tkazadi. Talabalarni jonlantirish maqsadida «Nima uchun?» texnikasidan foydalanilgan holda: «Nima uchun bugungi kunda o'zbek shoirlarining ijodini o'rganishga nisbatan e'tibor kuchayyapti?» deb savol bilan murojaat qiladi (1 ilova). Fikrlarni umumlashtirib, amaliy mashg'ulotni boshlaydi.	Savollarga javob beradilar.
	1.3.Guruhda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi, (2 ilova) guruh natijalari e'lon qilinganidan so'ng, har bir talabani individual baholashini aytib o'tadi. Guruhning hamkorlikdagi faoliyat natijalarini vatman-qog'ozda taqdim qilishlarini e'lon qiladi.	Eshitadilar, savollar beradilar.
2 bosqich  Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhlariga bo'ladi, baholash ko'rsatkichi va mezonlari bilan tanishtiradi (3 ilova). Topshiriqlarni bajarishda qo'shimcha materiallardan foydalanish kerakligini tushuntiradi (darslik, ma'ruza matni). Guruhda ish boshlashni e'lon qiladi.	O'quv topshiriqlari va baholash mezonlari bilan tanishadilar  Topshiriqni bajaradilar.
	2.2.Guruhlariga «Koop-koop» texnikasidan foydalanilgan holda, (4 ilova), «XVII-XVIII asrlarda XIX asrning birinchi yarmida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar» mavzusini yoritib bering, - deb savol bilan murojaat qiladi.	Mustaqil tarzda topshiriqni bajardilar.
	2.3. Ish boshlanganligini e'lon qiladi, har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi.	Topshiriqni bajaradilar.
	2.4. Guruh ishi natijalarini o'zaro baholash va taqdimotni tashkil qiladi. Asosiy e'tibor topshiriqni qanday bajarganligiga, chiqarilgan xulosaga, sharhlab berishga va bilimlarni o'zlashtirganligiga qaratiladi.	Ish natijalari-ning taqdimotini o'tkazadilar. Jamoa bo'lib muhokama qiladilar, baholaydilar.
3 bosqich Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Yakuniy xulosalar chiqaradi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi: Referat yozish qoidalari tushuntiriladi.	Eshitadilar.

**1-o'quv topshiriq**  
**«Nima uchun» organayzeri**



**Guruhda ishlash qoidalari**

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim faol, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- Boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.
- Kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

**Baholash mezonlari ko'rsatkichi**

<b>Guruh nomeri</b>	<b>1 top- shiriq (1,0)</b>	<b>2 top- shiriq (1,4)</b>	<b>3 topshiriq (0,2 ball har bir savol uchun)</b>			<b>To'plagan balli (3,0 ball)</b>	<b>Bahosi</b> 2-3 – «a'lo» 1.2 – «yaxshi» 0,5-1 «qon-li»
			1savol	2savol	3savol		
1							
2							
3							



**«Koop-koop» («Hamkorlikda o'qiyimiz») texnikasini o'tkazish qoidasi**

<i>Ish bos- qichlari</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
1.	3 va 5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil qiladi	
2.	Har bir guruhga mavzuning bir bo'lagi bo'lib hisoblangan bir xil topshiriqlar beradi. Topshiriqni bajarish uchun yo'riqnomalar beradi.	Guruh a'zolari o'zaro topshiriqlarni bo'lib olishadi.
3.	Topshiriqni muvaffaqiyatli bajarilishini va muomala madaniyatini nazorat qiladi.	3.1. Hamma topshiriqni mustaqil bajaradi, mavzular bo'yicha mustaqil ishlaydi. 3.2. Guruh a'zolarining minima'ruzalarini tinglaydi. Umumiy ma'ruza tayyorlanadi. Ma'ruzani o'qish uchun spiker tayinlanadi.
4.	Guruhlarda ish yakunlarini chiqarilishini so'raydi va taqdimotini o'tkazishni talab qiladi.	Guruh-spikeri ma'ruzaning taqdimotini o'tkazadi.
5.	Natijalarni tahlil qiladi va baholaydi, g'olib guruhlarni aniqlaydi.	

### **2-o'quv topshiriq**

#### **1. Bitta gapga savol va javob tayyorlang.**

1. XVII-XVIII asrlarda XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, fan va madaniyat qanday rivojlangan.

2. **Sxema tuzing:** «Ogahiyning pedagogik qarashlari».

### **3-o'quv topshiriq**

#### **1. Savollarga javob bering:**

1. Jahon Otin – Uvaysiyning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasini misollar asosida ko'rsating.

2. Munis Xorazmiy she'rlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari qanday ulug'langan.

3. Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan misollar keltiring.

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar**

1. Nodira, Uvaysiy, Ogahiy she'rlarini o'rganish va tahlil qilish.

2. Berdaqning ma'rifiy qarashlaridan fikrlarni topib, daftarga yozib kelish.

**15-MAVZU:****MARKAZIY OSIYODA XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA IJTIMOIIY HAYOT, TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR****15.1.Ma'ruza darsini olib borish texnologiyasi**

<b>Vaqt-2 soat.</b>	<b>Talabalar soni: 60 ta</b>
<i>Dars shakli</i>	Ekspert ishtirokida tashkil etilgan ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya.</li> <li>2. Dilshod Otinning pedagogik qarashlarida insoniylikning ulug'lanishi.</li> <li>3. Anbar Otin she'rlarida ma'rifatparvarlik va mehnatsevarlik g'oyalarining ilgari surilishi.</li> <li>4. Ahmad Donishning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari.</li> <li>5. Ahmad Donish ijodida oila munosabatlarining ifodalanishi.</li> <li>6. Furqat ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'ib qilinishi.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya masalalarini tahlil qiladi;</li> <li>• Dilshod Otinning pedagogik qarashlarini ochib beradi;</li> <li>• Anbar Otin va Furqatning ma'rifatparvarlik qarashlari haqida tushuncha beradi.</li> </ul>	<i>O'quv natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya masalalarini tahlil qiladi va izoh beradi;</li> <li>• Dilshod Otinning pedagogik qarashlariga tavsif beradi;</li> <li>• Anbar Otin va Furqatning ma'rifatparvarlik qarashlari haqida fikr bildiradi.</li> </ul>
<i>Usullar va texnikalar</i>	Ma'ruza, suxbat, muhokama, kichik guruhlarda faoliyat bajarish, taqdimot
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, texnik vositalar, qog'oz, marker, skotch, doska
<i>O'qitishning shakli</i>	Yalpi, jamoa
<i>O'qitish shart-sharoilari</i>	Texnik vositalar bilan ishlashga moslashgan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki – so'rov, savol-javob

## Ma'ruza darsining texnologik kartasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1-bosqich. Kirish (10 daq.)	<p>1.1.Darsning mavzusi, maqsadi, rejasi va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi .</p> <p>1.2.Darsni tashkil etish usulini e'lon qiladi.</p> <p>1.3.Taklif etilgan ekspertni tanishtiradi (adabiy til normasi masalasi bo'yicha shug'ullanuvchi).</p> <p>1.4.Uyga berilgan vazifani tekshiradi.</p> <p>Talabalardan matn bilan mustaqil tanishish jarayonida vujudga kelgan muammoli savollarni so'raydi va ularni doskaga yozadi</p>	<p>Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar.</p> <p>Tinglaydilar, savol beradilar.</p> <p>insert jadvalini ko'rsatadi va savollar beradi.</p>
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1.Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar haqida qisqacha ma'lumot beradi (1-ilova). Talabalarning savollarga javob beradi.</p> <p>2.2.So'zni ekspertga beradi va undan bugungi kunda adabiy til normasi sohasida ilmiy va amaliy yo'nalishlarda qanday ishlar olib borilayotganligini gaprib berishni so'raydi. Ekspertning axboroti tugagach savol-javobni tashkil etadi (2- ilova). Savol-javob jarayoni tugagach ekspert axborot va javoblariga qisqacha xulosa yasaydi.</p> <p>2.3.Dars boshlanishida doskaga yozilgan savollarga e'tiborni qaratadi va javob topilgan savollarni birin-ketin o'chiradi. Javobsiz qolgan savollarga ekspert bilan birgalikda va talabalarning faol ishtirokida Mavzuni yakunlaydi va umumiy xulosa qilinadi.</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Javob beradilar.</p> <p>Savol beradilar.</p> <p>Savolni tahlil qilishda ishtirok etadilar.</p>
3-bosqich Yakuniy. (10 daq.)	<p>3.1. Mavzuning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratadi.</p> <p>3.2. O'tkazilgan darsga umumiy baho beradi.</p> <p>3.3. Mavzu yuzasidan qisqa esse yozib kelishni taklif etadi</p>	<p>Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>O'UM ga murojat etadi.</p>

## Ko'rgazmali materiallar

### Nodira she'rlaridan namuna

#### Нодира ёзади:

Фуқаро ҳолига гар боқмасса ҳар шоҳ анга,  
Ҳашмату, салтанату, рифъату шон барча абас.  
Шоҳ улдурки, раийятга тараҳхум қилса,  
Йўқ эса қоидаи амну омон барча абас.  
Муҳаббатсиз киши одам эмасдур,  
Гар одамсен муҳаббат ихтиёр эт. -

### Ogahiy she'rlaridan namuna

**Огаҳий халққа яхшилиқ қилишни ўзининг инсоний бурчи деб  
билади. У дейди:**

Эй кўнгил яхшилиғни қил пеша,  
Ки, ямонлиғ эрур ямонға жазо.  
Кимки, тарк айласа ямонлиғни,  
Бўлур, албатта, яхшилиғга сазо.  
  
Кўрмайин десанг ики олам аро афтодалиғ,  
Бўл қўлингдан келгунча афтодаларга дастгир.

## Uvaysiy she'rlaridan namuna

**Увайсий тарбиявий қарашларида меҳр-муҳаббат ғояси алоҳида ўрин тутди. У одамларни ҳаёт завқини тотишга, шодлик дамларини ғанимат билишга даъват этади.**

### Шоира дейди:

Дунёни букун давр ила доврини ғанимат,  
Келтирди халойиқники, меҳмон ғанимат,  
То булбули мастона суханрезни булдам,  
Айвони жаҳон боғи гулистони ғанимат.

### Мавзу бўйича саволлар

1. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида Марказий Осиёда ижтимоий ҳаёт ва таълим-тарбия масалаларини таҳлил қилинг.
2. Дилшод Отиннинг педагогик қарашларида инсонийликнинг улуғланишига мисоллар келтиринг.
3. Анбар Отин шеърларида маърифатпарварлик ва меҳнатсеварлик ғояларининг илгари сурилиши қайси шеърлари орқали ифодаланган.
4. Аҳмад Донишнинг таълим-тарбияга оид қарашларини таҳлил қилинг ва изоҳ беринг.
5. Аҳмад Дониш ижодида оила муносабатларининг ифодаланишини мисоллар асосида кўрсатинг.
6. Фурқат ижодида маърифатпарварлик ғояларининг тарғиб қилинишини қайси асарлари орқали кўриш мумкин.

## 15.2. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<b><i>Dars vaqti – 2 soat</i></b>	<b><i>Talabalar soni: 30 ta</i></b>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya.</li> <li>2. Dilshod Otinning pedagogik qarashlarida insoniylikning ulug'lanishi.</li> <li>3. Anbar Otin she'rlarida ma'rifatparvarlik va mehnatsevarlik g'oyalarining ilgari surilishi.</li> <li>4. Ahmad Donishning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari.</li> <li>5. Ahmad Donish ijodida oila munosabatlarining ifodalanishi.</li> <li>6. Furqat ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'ib qilinishi.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlash.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• talabalarning ijodiy izlanishi va o'z mustaqil fikrlarini bildirishi uchun imkoniyat yaratadi;</li> <li>• mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>• manbalar bilan ishlashni o'rgatadi;</li> <li>• darslik bilan mustaqil ishlash, tizimga solish, taqqoslash va mulohaza qilishga o'rgatadi;</li> <li>• o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi;</li> <li>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• mavzu mazmun-mohiyatini yoritib bera oladi;</li> <li>• Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiyaga ta'rif beradi va uni tahlil qilib beradi;</li> <li>• darslik bilan mustaqil ishlay oladilar, taqqoslash va mulohaza qilish qobiliyatiga egalar;</li> <li>• o'zbek shoirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini tahlil qiladilar.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Blis-so'rov, bahs-munozara
<i>O'qitish vositalari</i>	<i>Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, test.</i>
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal va individual ish.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	<i>Jihozlangan auditoriya.</i>
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat, reyting tizimi asosida baholash.

### **Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi**

<b><i>Ish bosqich-lari</i></b>	<b><i>O'qituvchi faoliyatining mazmuni</i></b>	<b><i>Talaba faoliyatining mazmuni</i></b>
1 bosqich Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	1.1.Eshitadilar. Mavzu nomini yozib oladilar
	1.2. Talabalarining mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (1 ilova)	1.2.Yozib oladilar
2 bosqich  Asosiy bo'lim.  (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 4 guruhga bo'ladi. Guruhga topshiriqlarni tarqatadi.(2 ilova) Mavzu bo'yicha talabalarga topshiriq berilib, uni guruhda bajarish yo'llari ko'rsatiladi. Berilgan topshiriqlarni bajaranganlaridan so'ng, taqdimot qilishlarini aytadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallardan foydalanishlari kerakligini aytib o'tadi (darslik, ma'ruza matni). Guruh ishi tashkil qilinadi. Kuzatuvchi ishning sifati bo'yicha hisobot beradi va quyidagilarga rioya qiladi: -Guruh ishini nazorat qiladi; -Topshiriqlarni individual tarzda bajarishlariga alohida e'tibor qaratadi. -Topshiriqni bajarish jarayonida bir qator savollar beradi: «Siz nima uchun bunday o'ylayapsiz?», «Nima uchun bu metodni tanladingiz?»	2.1.O'quv materiallari bilan tanishadilar. Guruh ichida topshiriq va savollarni bo'ladilar, individual bajaradilar va topshiriqni muhokama qiladilar. Jamoa bo'lib javoblarni tayyorlaydilar va taqdimot varag'ini to'ldiradilar.
	2.2. Taqdimot o'tkazishlarini e'lon qiladi. Guruh a'zolaridan ish natijalarini birgalikda muhokama qilishlari so'raladi. O'zaro baholashni tashkil qiladi, ishning bajarilishi bo'yicha yakunlovchi xulosa chiqaradi.	2.2. Guruh vakil-laridan biri prezentasiya qiladi. Qolganlar bilimlari qanday darajada ekanligini tekshirish maqsadida savollar beradilar, guruh tomonidan berilgan javobni baholaydilar.
	2.3.Individual tarzda test o'tkazadi.(3 ilova)	2.3. Test savollariga javob beradilar.
3 bosqich  Yakunlovchi	3.1.Baholash natijalarini ko'rib chiqadi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi. Bilim va ko'nikmalarni qachon va qayerda qo'llashlarini aytib o'tadi.	3.1.Muhokama qiladilar. O'zaro baholaydilar.

(10 daqiqa)	3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi: ma'ruza matnining 5 mavzusiga Insert usulidan foydalanib diskussiya uchun savollar tayyorlab kelish. Ma'ruzachilarni 4 guruhga bo'lib, diskussiya o'tkazish tartibi va qoidalari bilan tanishtiradi. Mustaqil topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish, savollarni ochib berish, qisqa xulosalar chiqarish, ko'rgazmali materiallardan foydalanish kabilar tushuntiriladi.	3.2.Topshiriqni yozib oladilar.
	3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi.	O'UMga qaraydilar.

1-ilova

***Amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari ko'rsatkichi***

Guruh ishini o'zaro baholash mezonlari	O'rtacha ball	1 guruh	2 guruh	3 guruh	4 guruh
Savol va javobga	0,5				
Topshiriq	1				
Guruh faolligi (savollar, qo'shimchalar)	0,5				
Jami:	2				

Talabalarni individual baholash guruh ishini umumiy baholash natijalaridan kelib chiqadi (o'rtacha 2 ballgacha) va test natijalarini umumiy baholash (o'rtacha 1 ballgacha). Amaliy mashg'ulotning o'rtacha bahosi – 3 ballgacha, 2,2-3 ball-«a'lo», 1,2-2 ball-«yaxshi», 0,5-1,1 ball-«qoniqarli», 0-0,5 ball-«qoniqarsiz».

Guruh	Guruh uchun umumiy ball			
	1	2	3	4
1	-			
2		-		
3			-	
4				-
Har bir guruhning umumiy baholash balli				
Umumiy baholash balli 3 ga bo'linadi				

2-ilova

**O'quv topshiriqlari**

**1 guruh**

**1 topshiriq.** Savolga javob bering. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya qanday bo'lgan?

**2 topshiriq.** Nodira g'azallaridan 4 qator keltiring.

**3 topshiriq.** Boshqa guruhlar bilimni tekshirish uchun 3 ta savol tuzing.



## **2 guruh**

**1 topshiriq.** Savolga javob bering. Dilshod Otinning pedagogik qarashlarida insoniylik masalalari qanday ulug'langan?

**2 topshiriq.** Anbar Otin she'rlarini ifodali o'qib bering?

**3 topshiriq.** Boshqa guruhlar bilimini tekshirish uchun 3 ta savol tuzing.

## **3 guruh**

**1 topshiriq.** Savolga javob bering. Ahmad Donishning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan misollar keltiring.

**2 topshiriq.** Uvaysiyning she'rlaridan 4 qator yoddan aytib bering?

**3 topshiriq.** Boshqa guruhlar bilimini tekshirish uchun 3 ta savol tuzing.

## **4 guruh**

**1 topshiriq.** Savolga javob bering. Ahmad Donish ijodida oila munosabatlarining ifodalanishidan misollar keltiring.

**2 topshiriq.** Furqatning «Sayding qo'ya ber, sayyod» musddasidan 4 qator aytib bering.

**3 topshiriq.** Boshqa guruhlar bilimini tekshirish uchun 3 ta savol tuzing.

### **Мустақил топшириқ.**

Марказий Осиёда XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида ижтимоий ҳаёт, таълим-тарбия ва педагогик фикрларни ўқиб, мустақил реферат ёзиш.

**16.1.Ma'ruzani olib borish texnologiyasi**

<i>Dars vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 60 ta</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Konferensiya asosida tashkil etilgan ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar.</li> <li>2. Qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyasining tug'ilishi. Sokrat, Platon va Arastularning faoliyati.</li> <li>3. Qadimgi Rimda tarbiya va maktab.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Yevropa mutafakkirlarning ta'lim – tarbiyaga oid qarashlarini talabalar ongida shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalari:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar tahlil qiladi va baho beradi;</li> <li>• qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyasining tug'ilishi. Sokrat, Platon va Arastularning faoliyati ko'rsatib beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlarni aytib beradi;</li> <li>• qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyasining tug'ilishi. Sokrat, Platon va Arastularning faoliyati tahlil qiladi:</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Konferensiya-ma'ruza, bahs-munozara, taqdimot.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza qilish uchun tayyorlangan dokladlar va ularga tegishli bo'lgan ko'rgazmali materiallar,proyektor.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoadi ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	<i>Proyektor mavjud bo'lgan auditoriya.</i>
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, taqdimot, reyting tizimi asosida baholash.

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (1 mashg'ulot)**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
Tayyorgarlik bosqichi.	<p>1.Keyingi ma'ruza uchun oldindan tuzilgan mavzularning nomlarini talabalar diqqatiga havola qiladi va har bir mavzuning tahminiy rejasi bilan tanishtiradi (1-ilova)</p> <p>Mavzuning kelajakagi pedagogik faoliyati uchun ahamiyatini tushuntiradi.</p> <p>Ma'ruza-konferensiyasiga tayyorlanish uchun kerak bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini taqdim etadi.</p> <p>Mavzuning har bir rejasi bo'yicha ma'ruzachilarni hamda resenzent va opponentlarni tayinlaydi.</p> <p>Ma'ruzachilarga rejani tuzish va axborotni joylashtirish usullari to'g'risida ma'lumot beradi.</p> <p>Barcha talabalarga mavzu bilan tanishish va ma'ruzachilarga savollar tuzib kelish lozim ekanligini uqtiradi.</p> <p>Ma'ruzachilarni, resenzentlarni va opponentlarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).</p> <p>Ma'ruzachilarga mazmun va ko'rgazmali materallar tayyorlash yuzasidan yo'llanma beradi ( 3-ilova)</p>	<p>1.Yozib oladilar.</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>Yozib oladilar</p> <p>Mavzuni mohiyati haqida fikr yuritadilar.</p> <p>Rejalashtiradilar.</p> <p>Baholash mezonlari va reglament bilan tanishadilar.</p> <p>Ma'ruza yozadilar va ko'rgazmali vositalarni tayyorlaydilar.</p>
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1 Mavzuning maqsadi va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>Ma'ruzani konferensiya-munozara usulida o'tkazilishini e'lon qiladi.</p> <p>Konferensiya-munozara usulida darsni tashkil etish tartibi bilan tanishtiradi, baholash mezonlarini va munozara qoidalarini doskaga ilib qo'yadi (4-ilova ).</p>	<p>1.1.Eshitadilar, yozib oladi-lar,savol beradilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p>
2-bosqich. Asosiy. ( 60 daqiqa)	<p>2.1.Ma'ruzachilarning nutqlarini va axborotlarini tinglaydi.</p> <p>2.2.Ma'ruzachining ma'ruzasini va resenzent hamda opponentlarning nutqlarini jamoa bo'lib tahlil etishni tashkllashtiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- insert usulida to'ldirilgan jadval asosida savol-javobni tashkil etadi;</li> <li>- ma'ruzaning asosiy fikrlariga diqqat qaratadi va savollar bilan murojat etadi;</li> <li>- tinglovchilarning fikr bildirishiga e'tibor qaratadi;</li> <li>- Ma'ruzaning ilmiy izchil tahlilini ta'minlash</li> </ul>	<p>2.1.Ma'ruzachilar o'z ma'ruzalarini talabalar diqqatiga havola etadilar.</p> <p>2.2.Resenzentlar ma'ruzani ilmiy jihatdan tahlil etadilar.</p> <p>Opponentlar ham o'z fikrlarini bayon etadilar.</p> <p>Jamoa bo'lib tahlil etiladi.</p>

	maqsadida savollar berib boradi. Har bir ma'ruza shunday tartibda davom ettiriladi.	
3-bosqich. Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni bayon etadi. 3.2.Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini va jamoa faoliyatini baholaydi. 3.3.Uyga vazifa beradi (5- ilova). 3.4.Keyingi mavzuni mustaqil o'qib chiqishni tavsiya etadi va uning rejasi bilan talabalarni tanishtiradi.	3.1.Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.  3.4.O'UM ga murojaat etadilar.

1-ilova (3.1.)

### Konferensiyada ko'rib chiqish lozim bo'lgan mavzular.

1. Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar.
2. Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar.
3. Qadimgi Rimda tarbiya va maktab

**1-Mavzu:** Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar.

1. Qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari madaniyatini shakllanishi.
2. Qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlanishi.

**2-Mavzu:** Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar

1. Sparta va Afina maktablarini vujudga kelishi.
2. Qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyalarning tug'ilishi

**3-Mavzu:** Qadimgi Rimda tarbiya va maktab

1. Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflari.
2. Yunonistonning yirik faylasuf Arastuning pedagogik g'oyalarni shakllantirishga qo'shgan xissasi.

2-ilova (3.1)

### Ko'rgazmali materiallar

1-slayd

#### Ma'naviy madaniyatning shakllanishi

Qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi.

Yunoniston unchalik katta bulmagan bir qancha quldorlik davlatlardan tashkil topgan. Uning mutabar shaxarlaridan Lakonia (Bosh shaxri Sparta) va Attika (bosh shaxri Afina)din. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulida va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan buldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukumron edi.

Юнонистонда кулларни «гапирадиган иш куроли» деб ҳисоблар эдилар.

Лакония (Спарта)да кемалар тўхтайдиган қулай гаванлар бўлмаганлиги туфайли куллар меҳнатига асосланган деҳқончилик ҳукмрон эди. 9 минг оиладан иборат бўлган кулдорлар 250 мингдан кўпроқ аҳолига ҳукмронлик қиларди. Спарта куллари шафқатсиз таъқиб остига олинар эди.

Спарта таълим-тарбиянинг яна бир муҳим вазифаси ёшларни кулларга нисбатан шафқатсиз, уларни менсимайдиган қилиб тарбиялашдан иборат эди.

### Ma'ruzachi va munozara qatnashchilarini baholash mezonlari.

Baholash mezonlari (ballda)	Qatnashuvchilar			
	Ma'ruzachilar (I.Sh.)			
1.Ma'ruzaning mazmuni -0.1	1	2	3	4
-mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi-0.2				
2.Ko'rgazmalilik- 0.2				
Jami: eng yuqori ball: 0.5 ball				
OPPONENTLAR (I.Sh)				
1. Ma'ruzani tahlil qilish -0.1				
- ma'ruzaning ijobiy tomonlarini ochib berish- 0.2				
- ma'ruzada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatish- 0.2				
Jami eng yuqori ball: 0.5 ball.				
Resenzentlar va munozara ishtirokchilari				
1.Savollar				

O'rinli savollar-0.2				
- Qo'shimchalar- 0.3				
Jami eng yuqori ball-0.5 ball.				

4-ilova

**Мунозара қоидалари:**

1. Қисқа аниқ гапир.
2. Узоқ гаприма, бошқалар ҳам ўз фикрини билдирсин.
3. Ҳис-хаяжонга берилма, ўйлаб гапир.
4. Оппонентнинг ғояларини тушунишга ҳаракат қил.
5. Бошқаларнинг фикрини хурмат қил.
6. Мавзудан четга чиқма.
7. Ўз фикрингни ҳимоя қил.

5-ilova

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq**

1. O'quv kursining maqsadi va vazifalariga kengaytirilgan tavsif yozing.

Mazmuni	Maqsadi	Vazifalari

## 16.2. Amaliy mashg'ulot darsini tashkil etish texnologiyasi

<b>Dars vaqti- 2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 30 ta</b>
<i>Dars shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga asoslangan amaliy mashg'ulot darsi.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar. 2. Qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyasining tug'ilishi. Sokrat, Platon va Arastularning faoliyati. 3. Qadimgi Rimda tarbiya va maktab.
<i>Darsning maqsadi:</i> Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzuni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni uyg'otish va talaba-larning o'zaro savol-javobini uyushtiradi;</li> <li>• birlamchi manbaalar bilan ishlashni tashkil etadi;</li> <li>• ma'naviy qadriyatlar va uning tarbiyada tutgan o'rnini tahlil qilishni tashkil qiladi.</li> </ul>	<i>O'quv natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyasining tug'ilishi tahlil qiladi;</li> <li>• Sokrat, Platon va Arastularning faoliyatini tahlil qiladi;</li> <li>• Qadimgi Rimda tarbiya va maktabga oid ma'lumotlarni izohlaydi.</li> </ul>
<i>Usul va texnikalar</i>	Savol- javob, muhokama, kichik guruhlar, hamkorlikda o'qitish, diagramma «Venna».
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, marker, qog'oz, doska.
<i>O'qitishning shakl</i>	Jamoa va kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki javob, topshiriq. reyting tizimi asosida baholash.

### Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1 Mavzuning maqsadi va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarni e'lon qiladi.</p> <p>1.2.amaliy mashg'ulotnini kichik guruhlar texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etilishini e'lon qiladi.</p> <p>1.3. Guruhlarda ishlash tartib –qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	<p>1.1.Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar.</p> <p>1.2.Tinglaydilar</p>
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	<p>2.1.Talabalarni to'rtta kichik guruhlariga ajratadi .</p> <p>Har bir guruh rejaning birinchi savoli yuzasidan bittadan savol tayyorlashi talab etiladi.</p> <p>Har bir guruh o'z savolini o'rtaga tashlaydi va boshqa guruhlar javob beradilar.</p> <p>Javoblar tahlil etiladi va xulosalanadi.</p> <p>2.2.Talabalarga Sharq mutafak-kirlarining asarlaridan lavhalar tarqatiladi.</p> <p>Har bir guruh o'zi o'qigan lavhani mohiyatini taqdimot orqali ochib beradi ( 1-ilova).</p> <p>Asosiy fikrlarni ko'rsatadi va xulosalaydi.</p> <p>2.3.Ma'naviy madaniyatga tavsif berishni tashkil etadi (2-ilova).</p> <p>Taqdimotni uyushtiradi.</p> <p>2.4.Axloqiy va ma'naviy madaniyatni taqqoslash hamda o'xshash va farqli tomonlarini «Venna» diagrammasidan foydalangan holda aniqlashni taklif qiladi ( 3-ilova).</p> <p>Faoliyat natijalari tekshiriladi va to'g'ri javoblar umumlashtiriladi.</p>	<p>2.1.Guruhlariga bo'linadilar.</p> <p>Savol tayyor-laydilar.</p> <p>Javob beradilar.</p> <p>2.2.Talabalar lavhalarni o'qib chiqadilar va taqdimot tayyorlanadi.</p> <p>2.3.Har bir guruh xarakteristika yozadi.</p> <p>Taqdimot qiladi.</p> <p>2.4.Diagramma asosida faoliyat yuritadi va natijani bayon etadi.</p>
3-bosqich Yakuniy. ( 10 daq.)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni bayon etadi.</p> <p>3.2.Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini va guruhlar faoliyatini baholaydi.</p> <p>3.3.Mustaqil ta'lim uchun vazifa ( 4-ilova).</p> <p>3.4.Keyingi mavzuni mustaqil o'qib chiqishni tavsiya etadi va uning rejasi bilan talabalarni tanishtiradi.</p>	<p>3.1.Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>O'UM ga qaraydilar.</p>





**Taqdimotni baholash mezonlari.**

1. Mantiqiy o'zaro bog'liqlik va izchillik- 1 ball.
  2. Nutqning ravonligi va aniqligi- 1
  3. Adabiy til normalariga amal qilish- 1
- Jami: 3 ball.

**Qadimgi Yunonistonda tashkil etilgan maktablar madaniyatga tavsifnoma**

Turlari	Vazifalari	Xususiyatlari

**Diagramma «Venna».****«Venna» diagrammasi bilan ishlash ketma-ketligi.****O'quv topshirig'i**

Спарта ва Афина мактаблари ўртасидаги ўхшашликлар ва фарқларни «ВЕННА» диаграммаси асосида таққосланг. Фарқли жиҳатларини -X қисмига ва ўхшаш жиҳатларини – XX қисмига ёзиб чиқинг.

**Mustaqil ta'lim uchun vazifa**

1. «Qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyalarning tug'ilishi» mavzusida qisqa esse yozish.